

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**SUG‘URTA FAKULTETI**

**“SUG‘URTA ISHI” KAFEDRASI**

**ABDULLAYEVA NILUFAR JAVDAT QIZI**

**O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA QAYTA SUG‘URTA  
KOMPANIYALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING  
YO‘NALISHLARI**

5231200 – “Sug‘urta ishi” baqalaviriat ta‘lim yo‘nalishi

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

**Fakultet dekani**

\_\_\_\_\_ **i.f.n. G'.Safarov**  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ **2018 y.**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

**“Sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri**

\_\_\_\_\_ **i.f.n. I.Abduraxmonov**  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ **2018 y.**

**Bitiruvchi:** 5231200 – “Sug‘urta ishi” bakalavriat  
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi  
\_\_\_\_\_ **Abdullayeva Nilufar Javdat qizi**

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ **Sh.A.Zakirxodjayeva**

**TOSHKENT – 2018**

Men, Abdullayeva Nilufar Javdat qizi ushbu bitiruv malakaviy ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda bitiruv malakaviy ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishi bilan tanishganman.

**Talaba:** Abdullayeva Nilufar Javdat qizi

\_\_\_\_\_

imzo

\_\_\_\_\_

sana

## MUNDARIJA

	betlar
<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1-BOB. QAYTA SUG'URTA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI</b> .....	6
1.1. Qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirishning iqtisodiy mohiyati va rivojlanish bosqichlari .....	6
1.2. Qayta sug'urtalashning shakllari, turlari va ularning nazariy asoslari.....	13
1-bob boyicha xulosa.....	22
<b>2-BOB. O'ZBEKISTONDA QAYTA SUG'URTALASH BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA UNING TAHLILI</b>	23
2.1. Sug'urta kompaniyalari tomonidan qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirishning asosiy shartlari.....	23
2.2. O'zbekiston va jahon qayta sug'urta bozoridagi faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari va uning tahlili.....	30
2-bob boyicha xulosa.....	38
<b>3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA QAYTA SUG'URTA KOMPANIYALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> .....	39
3.1. O'zbekistonda qayta sug'urtalash munosabatlarini takomillashtirish yo'llari.....	39
3.2. Qayta sug'urtalashning xalqaro tajribasini O'zbekistonda qo'llash masalalari.....	49
3-bob boyicha xulosa.....	60
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR</b> .....	61
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	67

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozori rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish ko‘lami kengayib sifat ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamizda to‘laqonli sug‘urta bozorini barpo etish va uni barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun yetarli darajada iqtisodiy va huquqiy asoslar yaratildi. Sug‘urta sohasida mavjud bo‘lgan davlat monopoliyasiga barham berildi.

O‘tgan yillar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz rahbariyati va hukumati sug‘urta sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga va rivojlantirishga muntazam e‘tibor berib kelayapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan harakatlar strategiyasining 3.1. bandi makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda asosiy e‘tibor sug‘urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan<sup>1</sup>.

Iqtisodiyotda erishilgan marralar, istiqbolga mo‘ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, jahon bozoridagi real va yuzaga kelishi prognozlashtirilayotgan vaziyatdan kelib chiqib 2018 yilgi iqtisodiy dasturning bir qator eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalari belgilandi. Shuningdek, mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish, uzoq muddatli strategik maqsadlarni amalga oshirishda

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda)

O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish va mavqeyini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar, zamonaviy yuksak texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlarining samarali moliyaviy siyosat natijasi ekanligini qayd etish zarur.

O'zbekiston sug'urta bozorini jahon standartlariga mos ravishda rivojlantirishga etibor qaratilmokda va sug'urta bozorini modernizatsiyalash tubdan yangilashga katta etibor qaratilmoqda.

So'ngi yillarda sug'urta tizimining ajralmas bir qismi bo'lgan qayta sug'urtalash sohasiga ham katta e'tibor qaratildi va bu soha uchun hukumatimiz tomonidan qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Lekin hozirgi kunda mamlakatimizda ushbu soha rivoji bilan bog'liq qonunchilik tizimida ham amaliyotda ham yechimini kutayotgan muammolar juda ko'p. Ana shu holatlarning mavjudligi va qayta sug'urtalash bozorini muvofiqlashtirishning mohiyat jihatdan yangi tizimini joriy etish shart-sharoitlari va imkoniyatlarini o'rganishning zarurligi ushbu ish uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilab bermoqda.

**Tadqiqot predmeti.** Qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi mazkur ishining predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqot ob'ekti.** Ilmiy ishning ob'yekti sifatida O'zbekiston sug'urta bozoridagi qayta sug'urtalovchi kompaniyalar olindi.

**Maqsadi va vazifalari.** O'zbekistonda qayta sug'urtalash bozorini o'rganish, undagi qayta sug'urtalash operatsiyalarini turlari bo'yicha tasniflash, ularning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etish, qayta sug'urtalashning afzallik va kamchiliklarini o'rganish, huquqiy-me'yoriy ba'zani tahlil qilish, qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish

hamda respublikamizning xalqaro sug'urta bozoridagi integratsiyasini ta'minlovchi yo'llarni aniqlash mavzuning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun ushbu ishda quyidagi vazifalarni hal etish nazarda tutilgan:

- qayta sug'urta tushunchasi va uning ahamiyatini o'rganish;
- qayta sug'urta operatsiyalarining turlari va shakllarini tadqiq etish;
- qayta sug'urtalashni o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- O'zbekistonda qayta sug'urtalash bozorini davlat tomonidan tartibga solinganlik darajasini tadqiq etish;
- O'zbekistonda qayta sug'urtalash bozorini hozirgi holati va tendensiyalarini tahlil qilish;
- rivojlangan mamlakatlar qayta sug'urtalash bozorini o'rganish va O'zbekistonda qo'llash amaliyotini tadqiq etish;
- qayta sug'urtalash operatsiyalarini takomillashtirish istiqbollari yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyot sohasidagi asarlari, iqtisodiyotni isloh qilish, shu jumladan sug'urta sohasi bo'yicha qabul qilingan Prezident farmonlari, qonunchilik hujjatlari, xorijlik va mamlakatimiz olimlarining sug'urta yo'nalishi bo'yicha e'lon qilgan ilmiy maqolalari va monografiyalari ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda dasturamal vazifasini bajardi. Shuningdek, tadqiqot ishida xorijiy davlat sug'urta bozorining va milliy sug'urta bozorining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi tarkiban kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarb jihatlarini asoslovchi fikrlar hamda bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar keltirilgan. Birinchi bobda qayta sug'urtaning mohiyati va ahamiyati, qayta sug'urtaning shakli va turlari, qayta sug'urtalash mexanizmi oid fikrlar o'z ifodasini topgan. Ikkinchi bobda, qayta sug'urtalashning asosiy

shartlari, O'zbekiston va jaxon sug'urta qayta sug'urta bozoridagi faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari va uning tahlili, rivojlanish tendensiyalari keltirilgan.

Uchinchi bobda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida o'zbekistonda qayta sug'urta kompaniyalari faoliyatini takomillashtirish yo'llari, qayta sug'urtalashni amalga oshirishning xalqaro tajribasi va sug'urta faoliyatini amalga oshirishda davlatning tashabbuskorligi va milliy qayta sug'urtalash bozorini rivojlantirish istiqbollari doir mulohazali fikrlar o'z aksini topgan.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishini yozish davomida chiqarilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan. Ishning umumiy hajmi 69 betdan iborat.

# **1- BOB. QAYTA SUG'URTA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirishning iqtisodiy mohiyati va rivojlanish bosqichlari**

Bugungi kunda qayta sug'urtalash sug'urta biznesining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytda respublika sug'urta bozorida 27 ta sug'urta tashkiloti faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ular orasida faqatgina 6 ta kompaniya bevosita boshqa sug'urtalovchilar tomonidan sug'urtalangan yirik qaltisliklarni o'z zimmasiga oluvchi – kiruvchi qayta sug'urtalash faoliyati bilan ishlash imkoniyatiga egadir.

Ma'lumki har bir kishining hayoti va kasbiy faoliyatida xavfsizlik muhim hisoblanadi. Shu bois, kishilar o'z hayoti va foliyatini turli noxushliklardan saqlashga harakat qiladi. Bu borada sug'urta xizmatlari ayni muddao bo'lmoqda. Sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatida sug'urta xizmatlari bilan cheklanib qolmay, balki yirik mijozlarning mulkiy manfaatlari sug'urtalanganda qayta sug'urta xizmatini ham amalga oshiradi. Qayta sug'urtaning asosiy vazifasi kompaniyada yirik va qaltislik darajasi yuqori bo'lgan shartnomalar vujudga kelganda, ularni boshqa sug'urta kompaniyalarida joylashtirish va sug'urta portfelini turli xildagi xatarlardan balansda saqlashdir. Shu sababli sug'urta bozorida qayta sug'urtalash tizimi rentabelli yo'nalishlardan.

Bugungi kunda mamlakatimizda sug'urta faoliyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti infra tuzilmasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta iqtisodiyotda katta o'rin va ahamiyatga ega soha hisoblanadi. Eng avvalo, sug'urta sohasi iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash orqali iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotida asosiy omillardan biridir. Ikkinchidan, sug'urta sohasi iqtisodiyotga salmoqli hajmdagi investitsiyalarni kiritishi bilan ham ajralib turadi. Bu borada hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari katta salohiyatga ega hisoblanadi. Sug'urta munosabatlarining

iqtisodiyotda katta o'rin egallashi albatta o'z-o'zidan vujudga kelmagan va uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Sug'urta munosabatlarining evalutsion rivojlanishini tadqiq etishda eng avvalo, uning vujudga kelish sabablari va mohiyatini ko'rib chiqish zarur.


Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sug'urta faoliyatida qayta sug'urtalash munosabatlari o'ziga xos o'rinni egallaydi. Umuman, sug'urta sohasining rivojlanganlik darajasi qayta sug'urtalash tizimi bilan uzviy bog'langandir.

Qayta sug'urtalash bu – bir sug'urta tashkiloti zimmasidagi riskni yoki uning bir qismini ikkinchi sug'urta yoki qayta sug'urtalash tashkilotiga o'tkazishdir. Bu tushunchani qisqacha qilib risklar transformatsiyasi deb ham yuritish mumkin. Risklar transformatsiyasi jarayoni sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi munosabat bo'lganligi sababli, u bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo qayta sug'urtalash, sug'urta tashkiloti zimmasidagi me'yordan ortiq majburiyatlardan qutulishning eng optimal yo'lidir. Chunki, sug'urta tashkiloti katta summali bir shartnoma asosida qabul qilgan majburiyatning ma'lum qisminigina qoplash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Bunday holda, qayta sug'urtalash mijozning talabini qondirish imkonini beradi, ya'ni sug'urta tashkiloti (sedent) o'z zimmasidagi me'yordan ortiq majburiyatlarni qayta sug'urtalovchi(sessioner)ga o'tkazadi va mijozni o'zida ushlab qoladi. Bundan tashqari qayta sug'urtalash, sug'urta tashkilotlari uchun katta hajmdagi majburiyatlarni qabul qilish va o'z faoliyatining imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Masalan, sug'urta tashkiloti o'nlab yoki yuzlab sug'urta tashkilotlari bilan qayta sug'urtalash munosabatlarini o'rnatgan holda, turli katta ob'yektlarni (aviatsiya, dengiz sug'urtasi va boshqalar) sug'urtalash imkoniyatiga ega.<sup>2</sup>

Risklar transformatsiyasi ikki qayta sug'urtalovchi tashkilot o'rtasida ham yuz berishi mumkin va bu – retrotsessiya deb nomlanadi. (1- rasm)

---

<sup>2</sup> Christian P.R.Schmid, Konstantin Beck Re-insurance in the Swiss health insurance market: Fit, power, and balance // Procedia Economics and Finance №20 ( 2015) 112 – 118 p. (manba: [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com))



**1-rasm. Sug'urta bozorida risklar transferi, transformatsiyasi va retrotsessiyasiya.<sup>3</sup>**


Rivojlangan mamlakatlarda qayta sug'urtalash qadimdan taraqqiy etib, sug'urta faoliyatining yirik tarmog'iga aylangan. Ilk yuridik kuchga ega qayta sug'urtalash shartnomasi 1376 yilda Genuyada tuzilgan.<sup>4</sup> Mazkur shartnomada ikki savdogar Genuyadan Bryuggega dengiz orqali jo'natilayotgan tovarlarni sug'urtalagan shaxsning qayta sug'urtalanganligi qayd etilgan. Keyinchalik qayta sug'urtalash alohida faoliyat turiga aylanib keng rivojlandi. Qayta sug'urtalashni amalga oshiruvchi ilk sug'urta tashkiloti, ya'ni «Kyoln qayta sug'urtalash jamiyati» 1846 yilda tashkil topdi. Uning o'ziga xos xususiyati faqatgina qayta sug'urtalashga ixtisoslashganligidir. Hozirda, qayta sug'urtalash xalqaro darajada taraqqiy etib, quyidagi muhim funksiyalarni amalga oshirmoqda:

- sug'urtalangan riskni ikkilamchi taqsimlash;
- sug'urta tashkiloti tomonidan qo'shimcha moliyaviy kapitalni qabul qilinishiga sharoit yaratish;
- sug'urta tashkilotining to'lov qobiliyatiga ijobiy ta'sir etish;
- sug'urta hodisasi yuz berganda qoplamalarni to'lash jarayonini osonlashtirish va tezlashtirish.

<sup>3</sup> Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>4</sup> Под. ред. Турбиной К. Е. «Теория и практика страхования». Учебное пособие, М.:«Анkil», 2013.

Qayta sug'urta qilishning asosiy funksiyasi riskni qayta taqsimlashdir. Qayta sug'urta qilish va retrosessiya natijasida risklarning bo'linishi, ichki va xalqaro sug'urta bozorida ko'plab sug'urta tashkilotlari orasida javobgarlikni taqsimlashga erishiladi. (2-rasm)



**2-rasm. Qayta sug'urta qilish va retrosessiya chizmasi<sup>5</sup>**

Qayta sug'urtalash natijasida to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining sug'urtalash imkoniyatlari kengayadi, sug'urta summasining va sug'urta hodisasining yuzaga kelish ehtimollari kattaligi sababli sug'urtalash mumkin bo'lmagan sug'urta ob'yektlarini ham sug'urtalash uchun imkoniyat yaratib beradi.

Qayta sug'urtalash bo'yicha javobgarlikni olishda kompaniyalar to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalovchilardan sug'urta qaltisliklarini qabul qilish uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatni taqdim etib, sug'urta ishlarini amalga oshiradi. Bundan tashqari, mazkur faoliyat turi har bir hisobot davrida faoliyat natijalarini muvozanatga keltirishni ta'minlash, yillik balansini himoyalash va

<sup>5</sup> Балабанов И.Т. Страхование , С. Петербург. 2011 г , 256- с

to'lov qobiliyati ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.<sup>6</sup>

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sug'urta kompaniyalari sug'urtalanuvchilardan qabul qilgan riskni (majburiyatlarini) o'zining moliyaviy qobiliyatini mustahkamlash maqsadida boshqa sug'urta kompaniyasida yoki ixtisoslashgan qayta sug'urta qilish kompaniyalariga bir qismini o'tkazish yuzasidan shartnomalar tuzadi. Bunga sabab, ko'p hollarda sug'urtalovchilar barcha qabul qilingan risklar bo'yichasug'urta qoplamalarini to'lash masalasida moliyaviy taqchillik vujudga kelish ehtimoli paydo bo'lishi mumkin. Sug'urtalash faoliyati bilan shug'ullanadigan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-1544-son Qaroriga muvofiq 2014 yil 1 iyuldan ustav kapitalining miqdori umumiy sug'urta sohasida 1500 ming, hayotni sug'urtalash sohasida 2000 ming, majburiy sug'urtalash sohasida 3000 ming, faqat qayta sug'urtalash bo'yicha 6000 ming yevro ekvivalentiga teng summada shakllantirish belgilangan.

Kompaniyaning o'z mablag'lari manbasidan majburiyatlarining oshib ketishi bonkrotlik holati sodir bo'lishiga olib keladi. Ko'p hollarda sug'urtalovchilar barcha qabul qilingan risklar bo'yichasug'urta qoplamalarini to'lash masalasida muammoga duch kelishi mumkin. Katta hajmdagi zararlar sug'urta tashkilotining faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazib, uning faoliyati tugatilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Xuddi shunday vaziyatlarning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasiga binoan "Sug'urta shartnomasi bo'yichasug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yichasug'urtalanishi mumkin" deb belgilab

---

<sup>6</sup> Harshani K., Gayani K. and Dilanthi A. Role of insurance in post disaster recovery planning in business community // Procedia Economics and Finance №18 ( 2014 ) 626 – 634 p. (manba: [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com))

qo'yilib, majburiyatlarni qayta taqsimlashga yo'l qo'yiladi. Sug'urta sohasining mutaxassisleri ilmiy ishlari orqali qayta sug'urtalashga o'z qarashlarini bildirishgan. X.Shennaev fikricha qayta sug'urtalash "...sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi yoki riskni ikkilamchi joylashtirish"<sup>7</sup> deb ta'rif berilgan. A.Yuldashevning ta'kidlashicha qayta sug'urtalash "...iqtisodiy munosabatlar tizimining bir bo'lagi sifatida qaralib, sug'urtalovchi sug'urta operatsiyalari rentabelligini va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida, olingan javobgarlikning bir qismini, kelishilgan shartlarda boshqa sug'urtalovchilarga berilish jarayoni tushuniladi"<sup>8</sup> deb o'z qarashini bildirgan.

Qayta sug'urtalashga Q.Qo'ldoshev o'zining ilmiy qarashini "...iqtisodiy munosabatlarning shunday tizimiki, bu tizim orqali sug'urtachi o'zi qabul qilgan tavakkalchiliklar oldidagi javobgarlikning bir qismini kelishilgan shartlar asosida boshqa sug'urtachiga beradi va natijada balanslashgan sug'urta shartnomalari portfeli hosil bo'ladi, sug'urta operatsiyalarining rentabelligi va moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi"<sup>9</sup> degan fikri bilan isbotlashga harakat qilgan.

A.Yuldashev yana bir ilmiy qarashida "Qayta sug'urtalash operatsiyalari amaliyoti bir tomondan sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynasa, ikkinchidan sug'urtalanuvchi uchun ham riskni ishnoqli himoyaga olinganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi"<sup>10</sup> deb ta'kidlab o'tgan.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi barcha nazariy qarashlarni umumlashtirilgan holda qayta sug'urtalash operatsiyalarining amalga oshirilishi

---

<sup>7</sup>.Shennaev X.M. "O'zbekiston sug'urta bozori"-T.: "Iqtisod-Moliya", 2013yil 256 bet

<sup>8</sup>.O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.TMI,Toshkent-2012 yil 80 bet

<sup>9</sup> Qo'ldoshev Q.M. "Sug'urta bozori" o'quv qo'llanma.-T.: Iqtisodiyot,2011 yil 72 bet

<sup>10</sup> O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.TMI,Toshkent-2012 yil 80 bet

natijasida risklarning ikki yoki undan ortiq sug'urtalovchilar o'rtasida taqsimlanishi vujudga keladi. Shunga muvofiq ravishda sug'urta javobgarligi ham sug'urtalovchilar o'rtasida taqsimlanadi. Bu sug'urtalanuvchi uchun sug'urta zararini qoplashni ta'minlash bilan birgalikda sug'urtalovchining moliyaviy ahvolining yaxshilanishiga va sug'urta xodidasidan talofat ko'rganlarga qoplamalarni o'z vaqtida to'lash kafolatlanadi deb aytish mumkin.

Demak, qayta sug'urtalashni tashkil qilish risklarni qabul qilish uchun aktuar hisob-kitoblar natijasida sug'urta xodisalari va undan ko'riladigan zararlar prognoz qilinadi. Kutilayotgan zararlar tashkilotning aktivlaridan oshib ketish ehtimoli prognoz qilinsa qayta sug'urtalash takliflari ishlab chiqiladi va shartnomalar imzolanadi. Qayta sug'urtalash operatsiyalari sug'urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

## **1.2. Qayta sug'urtalashning shakllari, turlari va ularning nazariy asoslari**

Qayta sug'urtalashning shakllari, bu- tomonlarning o'zaro huquq va majburiyatlari hamda qayta sug'urtalashda tomonlar o'rtasida qabul qilingan risklar va munosabatlarning o'zaro kelishilgan shakllaridir. Xalqaro amaliyotda qayta sug'urtaning quyidagi shakl va turlari keltirib o'tiladi.

- fakultativ (ixtiyoriy) qayta sug'urtalash;
- obligatorli (majburiy) qayta sug'urtalash;
- fakultativ-obligatorli qayta sug'urtalash.

Qayta sug'urtalash shartnomalarining eng birinchi shakllaridan biri fakultativ qayta sug'urtalash shartnomasidir. Mazkur shartnoma individual risklar bo'yicha tuzilib, tomonlarning qayta sug'urtalashni amalga oshirishda ixtiyoriy ekanligi bilan ajralib turadi. Ya'ni qayta sug'urtalanuvchi – sedent o'z zimmasidagi riskning qancha qismini olib qolishini, hamda qayta sug'urtalovchi - sessionariy ham riskning qancha miqdorda o'z zimmasiga olishini ixtiyoriy ravishda hal qiladi.

Obligatorli qayta sug'urtalashda sedent shartnomada belgilangan risklar bo'yicha olingan majburiyatning ma'lum qismini qayta sug'urtaga berish

majburiyatiga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida qayta sug'urtalovchi uchun ham sedent taklif etgan risklarning ma'lum qismini o'z zimmasiga olish majburiyatini yuklaydi. Obligatori qayta sug'urtalashni amalga oshirish ikki tomon uchun ham fakultativ qayta sug'urtalash shartnomasini amalga oshirishdan ko'ra kamroq xarajatlarni talab etadi. Shuning uchun jahon sug'urta bozori amaliyotida obligatori qayta sug'urtalash shartnomalari ko'p uchraydi.


Yuqoridagilardan tashqari amaliyotda fakultativ-obligatori qayta sug'urtalash shakli ham mavjud. Mazkur sharoitda sedent qaysi risklarni qanday hajmda qayta sug'urtaga o'tkazishni ixtiyoriy ravishda hal qiladi. Lekin qayta sug'urtaga oluvchi tashkilot oldindan kelishilgan shartlarda risklarni o'z zimmasiga olishga majbur bo'ladi. Bunda shartnoma sedent uchun fakultativ sessionariy uchun esa obligatori ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Qayta sug'urtalashning mazkur shakli qayta sug'urtalovchi uchun xavfli bo'lishi mumkin, shuning uchun fakultativ-obligatori qayta sug'urtalash shartnomalari faqatgina qayta sug'urtalovchi kompaniya uchun ishonchli kompaniyalar bilan tuziladi.

Qayta sug'urta shakllari va turlaridan kelib chiqib qayta sug'urtada quyidagi atamalar qo'llaniladi:

Qayta sug'urtalash turi, bu - tomonlarning majburiyatlari yuzasidan o'zaro hisob-kitob, ya'ni olingan yoki berilgan risk ulushlari, mukofotini to'lash va zararlarni qoplash o'ziga xos tartib-qoidalarini olib borish ketma-ketligi yoki texnikasidir.

Bunga quyidagilar kiradi:

- proporsional (kvotali) qayta sug'urtalash;
- ekssedent qayta sug'urtalash;
- zararlilikning ekssedentili qayta sug'urtalash;



**3-rasm. “Sug’urta turlari va shakllari”<sup>11</sup>**

Qayta sug’urtalashda foydalaniladigan tushunchalardan biri bordero hisoblanib, quyidagicha izohlanadi:

Bordero – bu, sug’urtalanuvchilar nomlari, risklar tabiati va joylashgan joyi, sug’urta summasining miqdori qayta sug’urtaga berilgan risk ulushi, to’lanadigan mukofot, chegirmalar, qayta sug’urta ulushi va qoplash muddati to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga olgan ro’yxatni bildiradi. Amaliyotda yirik risklarni sug’urta qilish uchun, vaqti-vaqti bilan oldindan (dastlabki) bordero taqdim qilinib, keyinchalik esa tugallangan to’liq bordero taqdim qilinadi. Buning tarkibi quyidagilardan iborat bo’ladi:

- zararlar to’g’risida bildirish;
- yig‘ma (kumulyasion) bordero;
- hisobot;
- mukofot va zararlar zahirasi;
- qayta sug’urta statistikasi va h.k..

<sup>11</sup> Н.Н. Никулина “Страхование”, Москва: “Unity” 2008 й. 148-с

Ushbu iboralarning mazmuni quyidagicha ochib beriladi.

Sug'urtachi tomonidan har choraklik sug'urta xodisalaridan ko'rilgan zararlarning yillari bo'yichaguruhlangan ma'lumotnomasi qayta sug'urtachiga taqdim qilinadi. Qayta sug'urtalashda ko'p miqdorda zararlar ro'y bergan hollarda, sedent qayta sug'urtachidan "G'azna zarari"ni to'lash to'g'risida xabarnoma yuborish huquqiga ega.

Kumulyativ borderoda - tabiiy ofatlar natijasida paydo bo'ladigan rikslarni nisbiy qayta sug'urtalashda qayta sug'urtalovchiga riskni taqsimlovchi tomonidan taqdim qilinadigan ma'lumotlar to'plamini qamrab oladi. Buning tarkibiga sug'urta hodisasi vaqtida yuzaga keladigan javobgarliklarning aniq baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar kiritiladi.

Qayta sug'urtalovchi har bir sug'urtachiga alohida-alohida joriy hisob varaqa(schet)si ochib, shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida hisob-kitob olib boradi. Qayta sug'urtalashning nisbiy turida hisobotlar har chorakda taqdim qilinsa, qayta sug'urtalashning nonisbiy turida esa hisobot bir yilda bir marotaba taqdim qilinadi. Shu sababli qayta sug'urtalashda o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda hisobotlarni taqdim qilish shartlari va o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Hisobotlarni taqdim qilinishi bilan shartnomada belgilangan depozit mukofotlar o'z vaqtida to'lanadi va olinadi. Fakultativ qayta sug'urtada hisobotlar mukofot to'lanishi davrida taqdim qilinadi.

Qayta sug'urta mukofoti – sug'urtachi (riskni olib, qayta taqsimlovchi) tomonidan – qayta sug'urtalovchiga qabul qilingan sug'urta majburiyati uchun to'lanadigan pul ko'rinishidagi to'lov. Mukofotlarning miqdori va to'lash tartibini aniqlashda qayta sug'urta mukofoti stavkasi sug'urtachi tomonidan olingan sug'urta mukofotiga ko'paytirilib, ko'paytma natijasidan depozit mukofoti ayriladi. Depozit mukofoti sug'urtachi tomonidan qayta sug'urta shartnomasini tuzishi vaqtida qayta sug'urta mukofotining minimal miqdorida o'zaro kelishigan holda belgilanib, qayta sug'urtalovchining hisobiga o'tkazib beriladi. Bundan tashqari qayta sug'urta shartnomasida qayta sug'urta komissiyasi to'lashga kelishilib, uning miqdori foizlar ko'rinishida belgilanadi.

Qayta sug'urta komissiyasining absolyut miqdorini topish uchun komissiya foizini qayta sug'urta mukofoti miqdoriga ko'paytiriladi. Ushbu komissiya to'lovlarini amalga oshirishda yil yakuni bo'yichasug'urtachi foydasidan komissiya to'lash maqsadida, u kelishilgan shakllarda o'zining zararlar zahirasi to'g'risida ma'lumot hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotini qayta sug'urtachiga oldindan taqdim qiladi.

Qayta sug'urtachiga ishlab topilmagan mukofot va zararlar zahirasini aniqlash imkoniyatini beruvchi shartlar obligator qayta sug'urta shartnomasiga kiritilishi zarur. Zararlar zahirasi qayta sug'urta yilining oxirida, sug'urtachi tomonidan berilgan ma'lumot asosida hisoblanadi. Qayta sug'urtachining sug'urta zahiralari ham, to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining zahiralarini aniqlashda qo'llaniluvchi usullar bilan aniqlanadi.

Barchaga ma'lumki, sug'urta tarifi va sug'urta summalarini hamda sug'urta mukofotlarini aniqlashda aktuar hisob-kitoblar va statistik usullardan foydalaniladi. Statistik ma'lumotlar esa ikki xil davr, ya'ni, sug'urta yili yoki kalendar yili bo'yichayig'ilib, umumlashtiriladi. Qayta sug'urta shartnomalarining bajarilish natijalari bo'yichaumumlashgan statistik ma'lumotlari yilma-yil olib boriladi. Ushbu statistik ma'lumotlar "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" bilan ko'rsatkichlari hamda mazmuni bo'yichamos kelishi kerak.

Fakultativ qayta sug'urtalashda shartnoma har bir risk bo'yichaalohida tuziladi. Bunda sug'urtalovchi bir nechta sug'urta turlari bo'yicharisklarni qayta sug'urtaga taklif qilishi va qayta sug'urtalovchi taklif qilingan risklarni qayta sug'urtaga o'z ixtiyoridan kelib chiqib qabul qilishi mumkin. Fakultativ qayta sug'urtalash shaklida faqat sug'urtachining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish bilan shug'ullanib qolmasdan, sug'urta shartnomasi shartlarini aniqlashda, sug'urtachiga risk ko'lamini baholashda, zararni oldini prognozlashda amaliy yordam ko'rsatishi lozim. Qayta sug'urtalashda tomonlar birgalikda, risk joylashgan joyga hududda nazorat ishlarini birga olib borishni tashkil qilishi riklarni boshqarishni ta'minlaydi.

Obligatorli qayta sug'urtalashda tomonlar uchun majburiy ahamiyatga ega qayta sug'urtalash shartnomasi tuziladi. Bunda sug'urtalovchi shartnomada belgilangan risklarni qayta sug'urtalashga berish va qayta sug'urtalovchi ushbu risklarni shartnomada belgilangan tartib va shartlarda qabul qilish majburiyatini oladi. Qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan sug'urtachi qayta sug'urtachiga kelishilgan hududda aniq belgilangan risklar bo'yichatuzilgan barcha to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari qayta sug'urtaga beriladi. Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarining quyidagi turlarini amaliy misollar orqali ko'rib chiqamiz:

Proporsional qayta sug'urtalashda qayta sug'urtalovchi shartnomada belgilangan risklar bo'yichama'lum foizlardagi javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Sug'urta kompaniyasi obligatorli kvotali qayta sug'urtalash shartnomasini tuzdi va bu shartnoma bo'yichabarcha risklarning asosida javobgarlikning 30% ini (1-jadval) qayta sug'urtalovchiga o'tkazadi.

#### 1-jadval

#### Obligator kvotali qayta sug'urtalashda qoplamaning hisoblashni qiyosiy taqqoslash<sup>12</sup>

Obligatorli kvotali qayta sug'urtalash	Sug'urta javobgarligi	Qayta sug'urtalash shartnomasi	Sug'urta zarari	Qayta sug'urtalovchi To'laydigan qoplama
1-shartnoma	5000	1500	4000	1200
2-shartnoma	3000	900	3000	900
3-shartnoma	10000	3000	1000	300

Qayta sug'urtalovchi sug'urta zararining 30%ini qoplab berish majburiyatini oladi.

Ekssedent qayta sug'urtalash shartnomasida ma'lum belgilangan sug'urta summasi limitidan oshgan javobgarlikning qayta sug'urtalovchiga berilishi

<sup>12</sup> Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

belgilanadi. Summalar eksedenti qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yichasug'urta summasining limiti 4000 AQSH dollar i(2-jadval) etib belgilangan. Zararlar eksedenti qayta sug'urtalash shartnomasi bo'yichaqayta sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganda shartnomada belgilangan zarar limitidan oshgan taqdirda sug'urta qoplamasini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 2-jadval

### Ekssedent qayta sug'urtalashda qoplamaning hisoblashni qiyosiy taqqoslash<sup>13</sup>

Ekssedent sug'urtalash	qayta Sug'rta javobgarligi	Qayta sug'urtaga beriladigan javobgarlik	Sug'urta zarari	Ekssedent sug'urta qoplama miqdori
Qayta sug'urtalashda belgilangan limitlar		limit 4000	Limit 2000	
1-shartnoma	5000	1000 (5000-4000)	4000	2000(4000-2000)
2-shartnoma	3000	- (3000-4000)	3000	1000(3000-2000)
3-shartnoma	10000	6000 (1000-4000)	1000	-(1000-2000)

Zararlilikning eksedent shartlari asosida tuzilgan qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan qayta sug'urtalovchi shartnomada belgilangan risklar bo'yichasug'urta zarari belgilangan summadan ortsa, u zararning umumiy qismini qoplab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Agar qayta sug'urtalovchi sug'urta shartnomalari bo'yichasug'urta zarari 30%dan oshgan taqdirda (3-jadval), zararni qoplash majburiyatini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, u

<sup>13</sup> Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

holda yuqorida keltirilgan misollar bo'yichasug'urta qoplamasi quyidagicha hisoblanadi:

### 3-jadval

#### Zararlilikning eksedent qayta sug'urtalashda qoplamani hisoblashni qiyosiy taqqoslash<sup>14</sup>

Zararlilikning eksedent shartlari shartnomasi	Sug'urta javobgarligi	Qayta sug'urtalash shartnomasi	Sug'urta zarari	Sug'urta zarari 30%dan oshgandagi qoplama
1-shartnoma	5000	1500	4000	
2-shartnoma	3000	900	3000	
3-shartnoma	10000	3000	1000	
	18000	18000*0.3=5400	8000	2600(8000-5400)

Bunda:

qayta sug'urtalovchi sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta zarari 30% dan oshgan taqdirda to'lanadigan qoplama summasi

$$(4000+3000+1000) - 0.3*(5000+3000+10000) = 2600 \text{ AQSH dollari.}$$

Har qanday sug'urta shartnomasi singari qayta sug'urtalash shartnomasi ham yozma shaklda tuzilishi lozim. Qayta sug'urtalash shartnomasini tuzishda tomonlar quyidagilar borasida kelishuvga erishishlari zarur:

➤ qayta sug'urtalash ob'yekti – fakultativ qayta sug'urtalash shartnomasida konkret to'g'ridan to'g'ri sug'urtalash shartnomalari to'g'risida, yoki obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarining turlari to'g'risida;

➤ to'g'ridan to'g'ri sug'urtalash shartnomasida va qayta sug'urtalash shartnomasida belgilanadigan sug'urta hodisalari to'g'risida;

<sup>14</sup> Jadval muallif tomonidan tayyorlangan

➤ qayta sug'urta berilayotgan riskning ulushi, sug'urta summasining hajmi;

➤ qayta sug'urtalash shartnomasining amal qilish muddati.

Odatda, qayta sug'urtalash shartnomasining amal qilish muddati to'g'ridan to'g'ri sug'urtalash shartnomasining muddati yoki uning qismi bilan chegaralanadi. Qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalash shartnomasi amal qilishi davrida sodir bo'lgan sug'urta hodisasi oqibatida yetkazilgan zararni o'z ulushi doirasida qoplab berishi zarur. Mazkur qoplama qayta sug'urtalanuvchi tomonidan qachon to'lanishidan qat'iy nazar amalga oshirilishi zarur.

Qayta sug'urtalash shartnomalariga tadbirkorlik risklarini sug'urtalash qoidalari qo'llaniladi va uning o'ziga xos shartlari mavjud. Obligator qayta sug'urta shartnomalarini imzolanishida tomonlarda yuzaga keluvchi zararlarni yoki sug'urta qoplamasi bilan ta'minlash shartlarini kelishib olishlari lozim. Shartnoma «zararlar paydo bo'lgan yil» shartida imzolansa, sug'urta hodisasi ro'y berganligi to'g'risida ariza berilgan yoki berilmaganligidan qat'iy nazar, yuzaga kelgan barcha zararlar bo'yicha qayta sug'urtachida qayta sug'urta to'lovlarni amalga oshirish majburiyatlari paydo bo'ladi. Agar shartnoma «zararlar paydo bo'lgan yil» shartida imzolansa, sug'urta hodisasi ro'y berganligi to'g'risida ariza berilgan yoki berilmaganligidan qat'iy nazar, yuzaga kelgan barcha zararlar bo'yicha qayta sug'urtachida qayta sug'urta to'lovlarni amalga oshirish majburiyatlari paydo bo'ladi. Agarda qayta sug'urta shartnomasi «kalendar yili» shartlarida imzolansa, qayta sug'urta shartnomasi amaldagi muddatda imzolangan barcha to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha yuzaga kelgan zararlar haqiqatda qaysi sanada ro'y berilganligidan qat'iy nazar, qayta sug'urtachi tomonidan qoplanib berilishi zarur. Agarda qayta sug'urta shartnomasi «kalendar yili» shartlarida imzolansa, qayta sug'urta shartnomasi amaldagi muddatda imzolangan barcha to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yichayuzaga kelgan zararlar, haqiqatda qaysi sanada ro'y berilganligidan qat'iy nazar qayta sug'urtachi tomonidan qoplanib berilishi zarur. Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomasida qayta sug'urtalovchining

javobgarligi qayta sug'urtalanuvchining javobgarligi boshlanishi bilan amal qilishni boshlaydi va qayta sug'urtalanuvchining shartnoma bo'yichajavobgarligi tugashi bilan qayta sug'urtalovchining ham javobgarligi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash shartnomasi amal qilishining sanasidan qat'iy nazar tugaydi. Shu bilan birgalikda tomonlar sug'urta mukofotini to'lash tartibi va shartlarini kelishib olishlari zarur.

### **1-bob boyicha xulosa**

Qayta sug'urtalash bu – bir sug'urta tashkiloti zimmasidagi riskni yoki uning bir qismini ikkinchi sug'urta yoki qayta sug'urtalash tashkilotiga o'tkazishdir. Bu tushunchani qisqacha qilib risklar transformatsiyasi deb ham yuritish mumkin. Risklar transformatsiyasi jarayoni sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi munosabat bo'lganligi sababli, u bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo qayta sug'urtalash, sug'urta tashkiloti zimmasidagi me'yordan ortiq majburiyatlardan qutulishning eng optimal yo'lidir. Chunki, sug'urta tashkiloti katta summali bir shartnoma asosida qabul qilgan majburiyatning ma'lum qisminigina qoplash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Qayta sug'urta qilishning asosiy funksiyasi riskni qayta taqsimlashdir. Qayta sug'urta qilish va retrosessiya natijasida risklarning bo'linishi, ichki va xalqaro sug'urta bozoridagi ko'plab sug'urta tashkilotlari orasida javobgarlikni taqsimlashga erishiladi.

Qayta sug'urtalash bo'yicha javobgarlikni olishda kompaniyalar to'g'ridan-to'g'ri sug'urtalovchilardan sug'urta qaltisliklarini qabul qilish uchun qo'shimcha moliyaviy imkoniyatni taqdim etib, sug'urta ishlarini amalga oshiradi. Bundan tashqari, mazkur faoliyat turi har bir hisobot davrida faoliyat natijalarini muvozanatga keltirishni ta'minlash, yillik balansini himoyalash va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

## **2-BOB. O'ZBEKISTONDA QAYTA SUG'URTALASH BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA UNING TAHLILI**

### **2.1. Sug'urta kompaniyalari tomonidan qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirishning asosiy shartlari**

Xalqaro va milliy qayta sug'urta amaliyoti tahlil qilinganda, qayta sug'urta operatsiyalari bilan ikki xil sug'urta tashkilotlari qayta sug'urta bilan shug'ullanishini kuzatish mumkin. Birinchi turdagi qayta sug'urta tashkilotlari qayta sug'urta operatsiyalari bilan ikkilamchi faoliyat tariqasida shug'ullanishadilar. Ularning asosiy faoliyati to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari asosida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hisoblanadi. Ikkinchi turdagi qayta sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar esa faqat qayta sug'urtaga ixtisoslashgan tashkilotlardir.

So'ngi yillarda sug'urta sohasi bilan bir qatorda qayta sug'urta sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2011 yil 31 maydagi "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-1544-son qaroriga muvofiq qayta sug'urtalovchilarning ustav kapitalining eng kam miqdori 2012 yil 1 iyuldan boshlab 6 mln yevro ekvivalentida qilib belgilangan. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-sonli qarori asosida 2010 yil 27 dekabrda Moliya vazirining 111-sonli "Qayta sug'urta qilish xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i ishlab chiqildi. Mazkur nizom mamlakatimizda qayta sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talab va shartlarini belgilaydi va mamlakatimizda qayta sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi sug'urtalovchilar uchun majburiydir.

Qayta sug'urta xizmatlari qayta sug'urta qilish shartnomasi asosida ko'rsatiladi. Qayta sug'urta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Agar shartnoma yozma shaklda bo'lmasa haqiqiy deb hisoblanmaydi. Qayta sug'urta qilish shartnomasi qayta sug'urta qildiruvchining oferta yo'llashi va qayta

sug'urtalovchini uni akseptlashi yo'li bilan tuziladi. Qayta sug'urta qilish shartnomalarida quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- tomonlarning to'liq nomi
- qayta sug'urta qilish shartnomasining raqami, tuzilgan joyi va sanasi
- qayta sug'urta qilish shartnomasining amal qilish muddati
- qayta sug'urta qilish obyekti va berilayotgan tavakkalchiliklar
- sug'urta qoplamasini amal qilish hududi
- qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta puli va qayta sug'urta qilish

mukofoti

- qayta sug'urta qilish komissiyasi
- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda tomonlarning xatti-harakatlari
- qayta sug'urta shartnomasini bekor qilish tartibi
- tomonlarning huquqlari, javobgarligi va majburiyatlari
- tomonlar rekvizitlari, muhrlari bilan tasdiqlandan tomonlar vakillari

imzolari

Qonunchilikka muvofiq sug'urta shartnomasi qayta sug'urtaga berilgan taqdirda ham sug'urtalanuvchi oldida sug'urta qoplamasini to'lash majburiyati to'liqligicha sug'urtalovchining zimmasida qoladi. Sug'urtalanuvchi sug'urtalangan shaxsni almashtirish, naf oluvchini almashtirish, sug'urta riskining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarishi, sug'urtalangan mulkka bo'lgan huquqlarning boshqa shaxsga o'tganligi holati va boshqa shunga o'xshash holatlarda sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza bilan aynan sug'urtalovchiga murojaat etadi.

Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risidagi da'voni va sug'urta dalolatnomasini tuzuvchi shaxs hisoblanadi. Zarur bo'lgan hollarda sug'urtalovchi sug'urta hodisasi to'g'risidagi ma'lumotlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar, banklar, tibbiyot muassasalari va boshqa vakolatli tashkilotlardan so'rashi yoki sug'urta hodisasini izchil o'rganish maqsadida maxsus ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Bundan tashqari qayta sug'urtalanuvchi

to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasini tuzishda va uning muddati davomida quyidagi xarajatlarni amalga oshiradi:

- sug'urta shartnomalarini tuzganligi uchun sug'urta agentlari va brokerlariga komission mukofotlarni to'lash;
- mol-mulkning haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida ko'rib chiqish va ekspertlarni jalb qilish;
- sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchini almashtirish bilan bog'liq xarajatlar;
- sug'urta riskining oshishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zgarishi natijasida sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish;
- sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan huquqlarning boshqa shaxsga o'tishi va shunga o'xshash hodisalar oqibatida sug'urta shartnomasini qayta rasmiylashtirish sug'urtalanuvchining sug'urta hodisasi oqibatida yetgan zararni qoplash maqsadida bergan arizasi;
- sug'urta hodisasining yuz berish sabablari, uning yetkazgan zararlar hajmini aniqlash bilan bog'liq xarajatlar va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan xarajatlarni ma'lum darajada qoplash maqsadida qayta sug'urtalash shartnomasida sug'urta mukofotiga nisbatan foiz hisobida komission mukofotlarni to'lash tartibi keltiriladi. Ma'lumki, komission mukofotlar qayta sug'urtalanuvchi tomonidan olib qolinishi mumkin. Mazkur xarajatlarni kompensatsiyalash maqsadida sug'urtalovchi qayta sug'urtalovchidan ma'lum miqdorda mukofot yoki siylovlarni talab qilishi mumkin. Odatda, mazkur siylovlar qayta sug'urtalash shartnomasida sug'urta mukofotiga nisbatan foizlarda ko'rsatilib, qayta sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta mukofotlarini qayta sug'urtaga o'tkazishda ushlab qolinadi. Shu sababli, qayta sug'urtaga o'tkaziladigan sug'urta mukofotlari haqiqiy qayta sug'urta mukofotlari summasidan kamroqni tashkil etadi.

Qonunchilikda qayta sug'urtalash shartnomalarining sug'urta mukofoti to'lanishi bilan kuchga kirishi to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot keltirilmagan. Shuning uchun obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalarini

amalga oshirish amaliyotida sug'urta mukofotlarini har bir risk bo'yicha emas balki, ma'lum muddat davomida qayta sug'urtaga berilgan risklarning jamiga nisbatan hisoblash tartibi qo'llaniladi. Albatta bu tartib qayta sug'urtalash shartnomasida keltirilgan bo'lishi shart.

Obligatorli qayta sug'urtalash shartnomasi, unda ko'rsatiladigan risklar qayta sug'urtalanuvchi tomonidan belgilangan tartibda qayta sug'urtalovchiga o'tkazish va ularning qayta sug'urtalovchi tomonidan qabul qilinishini nazarda tutadi.

Chunki:

- qayta sug'urtalanuvchi risklarni qayta sug'urtaga berishi va qayta sug'urtalovchi har qanday holatda qabul qilinishi lozim;
- ushbu risk bo'yicha qayta sug'urtalovchining javobgarligi qayta sug'urtalanuvchining javobgarligi boshlanishi bilan boshlanadi. Shu vaqtning o'zida sug'urtalovchi qayta sug'urtalash shartnomasida belgilangan tartibda komission siylovlarni ushlab qoladi.

Agar obligatorli qayta sug'urtalash shartnomasida ma'lum davr oralig'ida qayta sug'urtaga beriladigan sug'urta risklarining yalpi hajmi bo'yicha sug'urta mukofotlarini berish belgilangan bo'lsa, hisobot davri oxirigacha hisoblangan qayta sug'urta mukofotlari komission chegirilgan holda qayta sug'urtalanuvchida deponentlangan hisoblanadi. Ba'zida bunday qayta sug'urtalash shartnomalarida deponentlangan qayta sug'urta mukofotlarining saqlanish muddatiga muvofiq ravishda foiz to'lash tartibi ham keltirilishi mumkin.

Qayta sug'urtalanuvchi tomonidan depo mukofotlaridan foydalanganlik uchun daromad summasi quyidagi formula orqali hisoblanishi mumkin<sup>15</sup>:

$$ND=(DP*I*N)/(365*100)$$

ND - hisoblangan daromad summasi;

DP - deponentlangan sug'urta mukofoti hajmi;

---

<sup>15</sup> I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, D.S.Sultanov, Sug'urta fashkilotlarida buxgalteriya hisobi va audit. O'quv qo'lanma. T.: "Iqtisod -Moliya" 2008 y.- 181 b

N - deponentlash muddati, kunlarda;

I - qayta sug'urtalanuvchi tomonidan o'z hisobidagi depo mukofotlarga hisoblanadigan yillik daromad normasining foizdagi ifodasi.

Pul mablag'larining qayta sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazib berilishi bilan sug'urtalovchining qayta sug'urtaga berilgan risklar bo'yicha qarzdorligi yopiladi.

Yuqorida keltirilganlarga muvofiq ravishda obligatorli qayta sug'urtalash shartnomalari asosida sug'urta mukofotlari bosqichma-bosqich to'lab borilishi mumkin.

Qayta sug'urtalash shartnomasiga ko'ra qayta sug'urtalovchi sug'urta zararini qoplash bilan bog'liq zararining bir qismini, ya'ni shartnomada belgilangan ulushda qoplab berishi lozim.

Ushbu qoplamanı olish uchun sug'urtalovchi (qayta sug'urtalanuvchi) qayta sug'urtalovchiga bergan arizasiga quyidagilarni ilova qilgan holda jo'natadi:

✓ belgilangan tartibda tasdiqlangan to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalarining nusxalari (sug'urta polisi, kvitansiya, ma'lumotnoma, sertifikat yoki boshqalar);

✓ sug'urta hodisasimng yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar (sug'urta dalolatnomasi, unga tegishli idoralarning ma'lumotnomalari ilova qilinadi, sug'urta hodisasining yuz berganligini va sabablarini, zarar hajmini tasdiqlovchi hujjatlar);

✓ to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta qoplamlarining to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Qayta sug'urtalovchi quyidagi hollarda sug'urta qoplamasini to'lashni rad etishi mumkin:

➤ qayta sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasini yetarli darajada o'rganmagan, ya'ni sug'urta hodisasining yuz berish sabablari, uning xarakteri, sug'urta zararining hajmi va boshqalar;

➤ qayta sug'urtalanuvchining sug'urta hodisasini sodir etganlikda aybdor

uchinchi shaxslardan zararni undirish huquqidan voz kechgan yoki qayta sug'urtalanuvchining aybi bilan uchinchi shaxsdan sug'urta qoplamasini undirish imkoniyatining yo'qotilishi;

➤ qayta sug'urtalanuvchi uchinchi javobgar shaxslardan sug'urta zararining hajmini undirgan taqdirda.

Qayta sug'urtalash shartnomalarida qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq qarorlariga amal qilishi belgilanishi zarur. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi qayta sug'urta hodisasini qaytadan tekshirishi mumkin bo'lmaydi va o'z zimmasiga olgan majburiyatning tegishli qismi bo'yicha sug'urta qoplamasini qayta sug'urtalanuvchiga to'lab berishi shart. Mazkur holat agar qayta sug'urtalovchi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisasini izchil o'rgangan va sug'urtalanuvchi javobgar shaxslardan sug'urta zararini undirish huquqidan voz kechmagan va qoplama olmagan taqdirda qo'llaniladi.

Qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urta qoplamasini qayta sug'urtalash shartnomasi amal qilish muddati tugagandan so'ng to'langan bo'lsa ham o'ziga tegishli sug'urta qoplamasini qayta sug'urtalanuvchiga to'lab berishi shart. Ma'lumki, deponentlangan mukofotlar qayta sug'urtalanuvchining ixtiyorida qoladi. Mazkur risklar bo'yicha qayta sug'urtalovchining ulushlari bo'yicha sug'urta qoplamalarini qayta sug'urtalovchi depo mukofotlar va unga hisoblangan foizlar hisobidan qoplashi mumkin. Agar qayta sug'urtalash shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa, depo mukofotlariga hisoblangan daromadlar ham qoplamalarni qoplashga yo'naltirilishi mumkin. Agar qayta sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasi summasi depo mukofotlar va ularga hisoblangan foizlar summasidan kam bo'lsa, u holda sug'urta qoplamasi depo mukofotlari hisobidan qoplaniladi. O'zaro hisob-kitoblarning bunday tartibi sug'urta mukofotlarini bosqichma-bosqich to'lashni nazarda tutuvchi fakultativ qayta sug'urtalash shartnomalari va belgilangan davrda qabul qilingan risklarning malum qismini qayta sug'urtaga o'tkazilishida sug'urta mukofotining davriy ravishda to'lanishini nazarda tutuvchi obligatorli

qayta sug'urtalash shartnomalarida ko'rsatilishi lozim. Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilarning o'zaro hisob-kitob dalolatnomalari asosida amalga oshiriladi. Qonunchilikka muvofiq agar mulkiy sug'urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug'urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta qoplamasini to'lagan sug'urtalovchiga o'tadi. Xuddi shunday huquqqa qayta sug'urtalanuvchining zararlarini qoplab bergan qayta sug'urtalovchi ham ega. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchiga qoplab bergan zarar doirasida sug'urta hodisasida aybdor shaxsga nisbatan zararni undirib olish huquqiga ega bo'ladi. Qayta sug'urtalash shartnomasida sug'urta hodisasini sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan da'vo qilishni qayta sug'urtalanuvchi tomonidan zararning o'ziga tegishli qismi doirasida amalga oshirishi mumkinligi yoki qayta sug'urtalanuvchi tomonidan aybdor shaxslarga nisbatan da'vo qilinganda qayta sug'urtalovchining ham manfaatlarini hisobga olishi mumkinligi belgilangan bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 959-moddasiga muvofiq qayta sug'urta shartnomasiga tadbirkorlik xavfini sug'urtalash shartnomasi sifatida qaralishi mumkin. Qayta sug'urtaga qabul qilingan risklar bo'yicha sug'urta qoplamasining ulushini to'lashga shunday sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasi sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchidan sug'urta hodisasi yuz berganligi yoki sug'urta qoplamasining to'langanligi to'g'risidagi xabarni olgandan so'ng belgilangan tartibda "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi"ni shakllantirishi mumkin. Ushbu zaxira "Zararlar va boshqa texnik zaxiralar"da hisobga olib boriladi. Ushbu zaxiraning hajmi to'lanishi kutilayotgan sug'urta qoplamalarining summasi bilan aniqlanadi. Sug'urta zararining hajmi arizada ko'rsatilmagan bo'lsa, zaxira miqdori maksimal summada tashkil qilinadi. Masalan, 1000000 so'm tovarlar saqlanuvchi ombor sug'urtalangan bo'lib, undagi qayta sug'urtalovchining ulushi 20%ni tashkil

etadi. Omborga yong'in tushganligi to'g'risida xabar kelgan taqdirda, zararining hajmi noaniq bo'lsa zaxira miqdori quyidagi summaga beriladi:

$$0.2 * 1000000 = 200000 \text{ so'm}$$

Agar sug'urta shartnomasida 10000 so'rnlik shartsiz franshiza nazarda tutilgan bo'lsa, zaxira miqdori quyidagi summaga beriladi:

$$0.2 * (1000000 - 10000) = 198000 \text{ so'm}$$

Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini, agar joriy yilda xabar qilingan zararlarni o'rganish va unga sug'urta qoplamasini to'lash to'g'risidagi qarori ushbu yilda chiqarishning imkoni bo'lmagan taqdirda, shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi sug'urta mukofotlari qaysi valyutada to'langan bo'lsa, o'sha valyutada to'lanishi belgilangan.

## **2.2. O'zbekiston va jaxon sug'urta qayta sug'urta bozorida faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari va uning tahlili**

O'zbekiston sug'urta bozori bir necha yildan beri barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib kelmoqda, bu esa o'z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. Ma'lumki, mamlakat moliya sektorining, shu jumladan, sug'urta sohasining rivoji mamlakatning umumiy iqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'langan. Sug'urta sohasi mamlakat iqtisodiyotining rivoji bilan uzviy bog'liqligi sababli, ushbu soha mamlakatdagi umumiy iqtisodiy o'zgarishlarga juda tez ta'sirchan hisoblanadi. O'zbekistonning hozirgi zamon iqtisodiyotida sug'urta tizimi strategik ahamiyat kasb etmoqda, buning boisi sug'urta tizimining davlat siyosati darajasiga kutarilganligi, sug'urta bozorining davlat boshqaruvi idoralari (organlari) tomonidan mamlakatning bozor infratuzilmasining ajralmas qismlaridan biri sifatida ko'rib chiqilayotganligidadir.

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan sug'urta sohasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston sug'urta bozori Markaziy Osiyoda eng tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan bozorlardan biri hisoblanadi. Bozor bir

necha yildan beri barqaror o‘shish sur‘atiga ega bo‘lib kelmoqda, bu esa o‘z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. Ma’lumki, mamlakat moliya sektorining, shu jumladan, sug‘urta sohasining rivoji mamlakatning umumiy iqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog‘langan. Sug‘urta sohasi mamlakat iqtisodiyotining rivoji bilan uzviy bog‘liqligi sababli, ushbu soha mamlakatdagi umumiy iqtisodiy o‘zgarishlarga juda tez ta’sirchan hisoblanadi.

So‘nggi yillarda milliy sug‘urta bozorining rivojlanishi asosan yalpi sug‘urta mukofoti hajmining ancha oshishi bilan tavsiflanadi. 2017 yil yakunlari bo‘yicha sug‘urta xizmatlarining YIM dagi ulushi 0,40 foizni tashkil etdi.

#### 4-jadval

##### Sug'urta bozori 2017 yil yakunlari bo'yicha ma'lumot (mln.so'm)<sup>16</sup>

	2016y.	2017y.	%
<b>UMUMIY USTAV KAPITALI, jumladan:</b>	<b>248 342,6</b>	<b>321 634,8</b>	<b>130</b>
<b>INVESTITSİYALAR, jumladan:</b>	<b>867 546,5</b>	<b>1 482 560,0</b>	<b>171</b>
Depozitlar (omonatlar)	390 100,2	669 719,0	172
Qimmatli qog'ozlar	358 754,3	643 880,3	179
Zaymlar	7 104,8	9 643,6	136
Ko'chmas mulk	49 465,4	98 040,3	198
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	60 599,0	60 313,7	100
Boshqa investitsiyalar	1 522,8	963,0	63
<b>SUG'URTA MUKOFOTLARI, jumladan:</b>	<b>692 594,4</b>	<b>927 451,4</b>	<b>134</b>
Ixtiyoriy sug'urta	485 008,0	694 106,0	143
Majburiy sug'urta	207 586,5	233 345,4	112
<b>SUG'URTA TO'LOVLARI, jumladan:</b>	<b>130 456,8</b>	<b>269 997,1</b>	<b>207</b>
Ixtiyoriy sug'urta	84 728,0	202 414,9	239
Majburiy sug'urta	45 728,8	67 582,2	148

<sup>16</sup> www.mf.uz

2017 yil yakunlari bo'yicha respublika sug'urta bozorida faoliyat yurituvchi umumiy sug'urta kompaniyalari tomonidan 788,8 mlrd. so'm hajmidagi sug'urta mukofotlari to'plandi. Mazkur ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 24,5 % o'sganini ko'rishimiz mumkin.

## 5-jadval

### Sug'urta bozorining 2017 yil yakunlari bo'yicha sug'urta kompaniyalari kesimidagi ma'lumot<sup>17</sup> (mln. so'm)

T/r	Sug'urta tashkiloti nomlanishi	Sug'urta mukofotlari	O'zgarishi %da	Sug'urta to'lovlari	O'zgarishi %da
1	"O'zagrosug'urta" AJ	134 295,3	94,1	93 251,5	317,0
2	"O'zbekinvest" EIMSK	130 832,1	125,9	20 311,6	135,3
3	"Gross Insurance" MChJ	81 269,5	220,4	11 405,2	628,9
4	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	80 344,1	106,7	23 895,7	137,2
5	"O'zbekinvest Hayot" MChJ	63 517,4	176,6	37 616,0	185,0
6	"Alfa Invest" MChJ ST	61 905,7	160,3	7 128,9	153,1
7	"Alskom" AJ SK	46 070,9	118,6	11 307,6	241,2
8	"New Life Insurance" MChJ	44 677,5	274,8	24 965,1	224,6
9	"Asia Inshurans" MChJ SK	35 247,6	108,6	4 848,0	95,2
10	"Euroasia Insurance" MChJ QK SK	30 608,1	196,8	759,5	119,4
11	"Temiryo'l Sug'urta" MChJ	28 063,9	132,4	1 862,3	148,5
12	"Kapital Sug'urta" AJ	24 801,5	93,9	6 349,6	109,5
13	"Ingo-Uzbekistan" SAJ	22 334,9	119,4	1 506,9	105,7
14	"Alfa Life" ShXJ ST	17 525,7	254,8	12 428,0	382,8
15	"Xalq Sug'urta" MChJ SK	14 848,0	114,0	1 161,8	52,9
16	"Universal-Sug'urta" AJ	14 539,4	120,6	1 097,2	90,4
17	"Asko-Vostok" MChJ	13 486,7	219,2	453,1	205,9
18	"Kafil sug'urta" MChJ	13 102,6	178,2	147,2	166,2
19	"Agros Hayot" MChJ	12 922,7	-	3 295,9	-
20	"Global Insurance Group" MChJ ST	10 197,2	189,9	127,7	128,0
21	"Mega Invest Insurance" MChJ SK	9 423,6	130,8	438,5	101,4
22	"Tashkent Insurance Group" MChJ SK	8 464,0	180,1	1 149,5	649,1
23	"IShONCh" BSK MChJ	7 737,1	105,1	2 113,6	126,3
24	"Hamkor Sug'urta" MChJ	7 606,0	90,2	792,8	116,8
25	"Unipolis" MChJ	5 106,3	231,3	314,9	38,9
26	"Garant Insurance Group" MChJ	4 766,5	87,1	433,2	175,0
27	"DD-General Insurance" MChJ	3 756,8	102,3	835,6	116,9
	<b>Jami:</b>	<b>927 451,4</b>	<b>133,9</b>	<b>269 997,1</b>	<b>207,0</b>

2017 yil yakunlariga ko‘ra ko‘pchilik sug‘urta kompaniyalari tomonidan sug‘urta mukofotlarini to‘plashda o‘sishi kuzatilmoqda. Sug‘urta mukofotlarini to‘plashda asosiy etakchi o‘rinlarni egallagan sug‘urta kompaniyalar "O‘zagrosugurta" AJ (17%) va "O‘zbekinvest" EIMSK (16,6%), "Gross Insurance" MCHJ (10,3%) va "Kafolat sug‘urta kompaniyasi" (10,2%).

## 6-jadval

### 2017 yilgi Top-10 sug‘urta mukofotlari bo‘yicha<sup>18</sup>

№	Sug‘urta tashkilotlarining nomi	Sug‘urta mukofotlari (mln. so‘m)	O‘zgarishi % da	Bozordagi ulushi % da
1	"O‘zagrosug‘urta" AJ	134 295,3	94,1	14,5
2	"O‘zbekinvest" EIMSK	130 832,1	125,9	14,1
3	"Gross Insurance" MCHJ	81 269,5	220,4	8,8
4	"Kafolat sug‘urta kompaniyasi" AJ	80 344,1	106,7	8,7
5	"O‘zbekinvest Hayot" MCHJ SK	63 517,4	176,6	6,8
6	"Alfa Invest" MCHJ SK	61 905,7	160,3	6,7
7	"Alskom" AJ	46 070,9	118,6	5,0
8	OOO "New Life Insurance"	44 677,5	274,8	4,8
9	"Asia Inshurans" MCHJ	35 247,6	108,6	3,8
10	"Euroasia Insurance" MCHJ QSK	30 608,1	196,8	3,3

Sug‘urta mukofotlariga hajmiga nisbatan umumiy sug‘urta tarmog‘idagi sug‘urta qoplamalari hajmi keskin 2 barobarga oshdi va 191,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi. 2017 yilda umumiy sug‘urta bo‘yicha to‘lab berilgan sug‘urta sug‘urta qoplamalarining yarimi «O‘zagrosug‘urta» AJ ga to‘g‘ri keldi. Mazkur

<sup>18</sup> www.mf.uz

sug'urta tashkilotining sug'urta qoplamalari 3,2 barobarga oshdi va 93,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## 7-jadval

### 2017 yilgi Top-10 sug'urta qoplamalari bo'yicha<sup>19</sup>

№	Sug'urta tashkilotlarining nomi	Sug'urta qoplamalari (mln. so'm)	O'zgarishi % da	Bozordagi ulushi % da
1	"O'zagrosug'urta" AJ	93 251,5	317,0	34,5
2	"O'zbekinvest Hayot" MCHJ	37 616,0	185,0	13,9
3	"New Life Insurance" MCHJ	24 965,1	224,6	9,2
4	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	23 895,7	137,2	8,9
5	"O'zbekinvest" EIMSK	20 311,6	135,3	7,5
6	"Alfa Life" SHSK	12 428,0	382,8	4,6
7	"Gross Insurance" MCHJ	11 405,2	628,9	4,2
8	"Alskom" AJ	11 307,6	241,2	4,2
9	"Alfa Invest" MCHJ SK	7 128,9	153,1	2,6
10	"Kapital Sug'urta" AJ	6 349,6	109,5	2,4

Shunday qilib, 2017 yil yakunlari bo'yicha sug'urta qoplamalarini to'lashda etakchi uchtalikka «Uzagrosugurta» AJ (34,5%), "O'zbekinvest Hayot" MCHJ SK (13,9%) va "New Life Insurance" MCHJ lar (9,2%) kirdi. Sug'urta qoplamalari bo'yicha birinchi beshta sug'urta kompaniyalarining konsentratsiya darajasi 74,1% ni, birinchi o'nta sug'urta kompaniyalari esa – 92,1% ni tashkil etdi. TOP-10 talikka kirmagan sug'urta kompaniyalarining sug'urta qoplamalari hajmi, 0,05% dan 1,8% gacha bo'lgan hajmni tashkil etdi.

<sup>19</sup> www.mf.uz

**2016 yilda halqaro miqyosdagi yirik qayta sug'uralovchi sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari<sup>20</sup>.**

<b>№</b>	<b>Kompaniyalar nomi</b>	<b>Mamlakat</b>	<b>Yillik qayta sug'urtalash mukofoti</b>
1	Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati (ingl. <i>Munich Re</i> )	Germaniya	33,719 mlrd. AQSH doll.
2	Shveysariya qayta sug'urtalash jamiyati (angl. <i>Swiss Re</i> )	SHveysariya	28,664 mlrd. AQSH doll.
3	Gannover qayta sug'urtalash jamiyati (nem. <i>Hannover Rueck</i> )	Germaniya	15,664 mlrd. AQSH doll.
4	Gen Re ( Birlashgan kompaniya General Re (AQSH) va Cologne Re (Germaniya)	AQSH-Germaniya	15,000 mlrd. AQSH doll.
5	Lloyd's of London	Velikobritaniya	13,621 mlrd. AQSH doll.
6	SCOR	Fransiya	9,845 mlrd. AQSH doll.
7	Reinsurance Group of America	AQSH	7,704 mlrd. AQSH doll.
8	Everest Re	Bermud	4,286 mlrd. AQSH doll.
9	Transatlantic Re	AQSH	4,035 mlrd. AQSH doll.

8-jadvalda, Rivojlangan davlatlarda qayta sug'urta guruhlarining 2016 yilda sug'urta mukofotlarining baholanishi to'g'risda ma'lumotlar o'z akasini topgan. Unda rivojlangan davlatlarning yirik va etakchi to'qizta qayta sug'urta

<sup>20</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>

kompaniyalarining qayta sugʻurta boʻyicha sugʻurta mukofotlarining yigʻindisi statistikasi keltirilgan.

Dunyo qayta sugʻurta bozorida Myunxen qayta sugʻurtalash jamiyati birinchi oʻrinda turishini koʻrishimiz mumkin. Myunxen qayta sugʻurtalash jamiyati 1880 yilda tashkil etilgan boʻlib uning bosh ofisi Germaniyada joylashgan. Bugungi kunda 160 dan ortiq mamlakatning 5 000 dan ortiq sugʻurta kompaniyalari Myunxen qayta sugʻurtalash jamiyatining tajribasiga va moliyaviy barqarorligiga ishonch bildiradi.

## 9-jadval

### Hannover Rück konserning 2009 yildan 2016 yilgacha boʻlgan moliyaviy koʻrsatkichlari<sup>21</sup>

Hajm (mln €) da	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016
<b>Brutto mukofot</b>	10274,9	11428,7	12096,1	13774,2	13963,4	14361,8	17068,7	16353,6
<b>Netto mukofot</b>	9307,2	10047,0	10751,5	12279,2	12226,7	12423,1	14593,0	14417,6
<b>Texnik natija</b>	-131,0	69,6	-100,4	-185,1	-535,8	-23,6	93,8	115,9
<b>Konsernning operatsion daromadi</b>	721,7	-127,0	733,7	748,9	606,0	985,6	1150,7	1171,2
<b>Jami balans</b>	37068,4	37490,2	40837,6	46725,3	49867,0	60457,6	63214,9	63528,6
<b>Yil yakunidagi aksiya kursi</b>	31,55	22,50	32,71	40,14	38,32	74,97	105,65	102,80
<b>Yil yakunidagi bozordagi kapitalizatsiyasi</b>	3.804,8	2.713,4	3.944,7	4.840,8	4.621,9	9.041,2	12.741,1	12.397,4

Keyingi ikkinchi oʻrinda esa SHveysariya qayta sugʻurtalash jamiyati turadi. (Schweizerische Rückversicherungs-Gesellschaft AG) — dunyoning eng

<sup>21</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>

katta sug'urta kompaniyalaridan biri bo'lib, 1863 yilda tashkil etilgan va kompaniyaning bosh ofisi Syurixda, SHvetsariyada joylashgan. Bugungi kunda mazkur kompaniya 30 dan ortiq mamlakatlarning sug'urta kompaniyalari bilan ishlab kelmoqda.

Uchinchi o'rinni esa, Hannover Re qayta sug'urtalash kompaniyasi egallamoqda, Hannover Re (nem. Hannover Rück SE) — qayta sug'urtalash kompaniyasi Talanks AJ (nem. Talanx AG) xolding kompaniyasining sho'ba korxonasi hisoblanadi va bosh ofisi Gannoverda, Germaniyada joylashgan, 1966 yil transport sug'urtasi va qayta sug'urtalash aksiyadorlik jamiyati (nem. ATR — Transport- und Rückversicherung AG) ko'rinishida tashkil etilgan.

Hannover Re qayta sug'urtalash kompaniyasi biznesning barcha turlari bo'yicha risklarni sug'urtalaydi va dunyoning ko'pgina mamlakatlarida o'zining filiallariga, vakolatxonalariga va 2 893 hamkorlariga ega.

Yuqoridagi jadval mahlumotlaridan ko'rishimiz mumkinki Hannover Re qayta sug'urtalash kompaniyasi tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari yil sayin oshib bormoqda, bu esa o'z navbatida mazkur tashkilotning qayta sug'urta bozorida moliyaviy barqarorligidan dalolat beradi.

## **2-bob boyicha xulosa**

Qayta sug'urta xizmatlari qayta sug'urta qilish shartnomasi asosida ko'rsatiladi. Qayta sug'urta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Agar shartnoma yozma shaklda bo'lmasa haqiqiy deb hisoblanmaydi. Qayta sug'urta qilish shartnomasi qayta sug'urta qildiruvchining oferta yo'llashi va qayta sug'urtalovchini uni akseptlashi yo'li bilan tuziladi.

Qayta sug'urtalash shartnomasiga ko'ra qayta sug'urtalovchi sug'urta zararini qoplash bilan bog'liq zararining bir qismini, ya'ni shartnomada belgilangan ulushda qoplab berishi lozim.

Qayta sug'urtalash shartnomalarida qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq qarorlariga amal qilishi belgilanishi zarur. Shuning uchun qayta sug'urtalovchi qayta sug'urta

hodisasini qaytadan tekshirishi mumkin bo'lmaydi va o'z zimmasiga olgan majburiyatning tegishli qismi bo'yicha sug'urta qoplamasini qayta sug'urtalanuvchiga to'lab berishi shart. Mazkur holat agar qayta sug'urtalovchi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisasini izchil o'rgangan va sug'urtalanuvchi javobgar shaxslardan sug'urta zararini undirish huquqidan voz kechmagan va qoplama olmagan taqdirda qo'llaniladi.

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan sug'urta sohasida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston sug'urta bozori Markaziy Osiyoda eng tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan bozorlardan biri hisoblanadi. Bozor bir necha yildan beri barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lib kelmoqda, bu esa o'z navbatida uning mamlakat iqtisodiyotidagi rolini oshirib bormoqda. Ma'lumki, mamlakat moliya sektorining, shu jumladan, sug'urta sohasining rivoji mamlakatning umumiy iqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'langan. Sug'urta sohasi mamlakat iqtisodiyotining rivoji bilan uzviy bog'liqligi sababli, ushbu soha mamlakatdagi umumiy iqtisodiy o'zgarishlarga juda tez ta'sirchan hisoblanadi.

### **3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA QAYTA SUG'URTA KOMPANIYALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

#### **3.1. O'zbekistonda qayta sug'urtalash munosabatlarini takomillashtirish yo'llari**

Ma'lumki, sug'urta munosabatlari keng qamrovli tushuncha bo'lib, u o'z ichiga sug'urta shartnomasining tuzilishidan, uning tugashigacha bo'lgan muddatni qamrab oladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bitiruv malakaviy ishi sug'urta munosabatlarining aynan qayta sug'urtalash, ya'ni sug'urta riskini uzatish bilan bog'liq sohasini o'rganishga va uni takomillashtirishga bag'ishlangan. O'zbekistonda qayta sug'urtalash munosabatlarini rivojlantirishni quyidagi yirik yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

➤ O'zbekiston sug'urtalovchilari tomonidan amalga oshirilayotgan tarif siyosatini takomillashtirish, mamlakatda aktuariylarning faoliyati uchun huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish;

➤ sug'urtalovchilar tomonidan iqtisodiyotning kengroq qamrab olinishi ta'minlash maqsadida, sug'urta xizmatlarini sotish yo'nalishlarini takomillashtirish;

➤ sug'urta tashkilotlarida sug'urta zahiralarning majburiyatlarga muvofiq va oqilona shakllantirilishini ta'minlash;

➤ qayta sug'urtalash munosabatlarini rivojlantirish ularning ko'lamini kengaytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Sug'urtalovchilar tomonidan amalga oshirilayotgan tarif siyosatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, ular tomonidan sug'urtalash jarayonini sifatli va barqaror bo'lishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Samarali tarif siyosatining asosini tashkil etuvchi tarkibiy qism bu sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan tarifikatsiya tizimi hisoblanadi. Tarifikatsiya tizimini shakllantirishda sug'urtalovchi eng avvalo, amalga oshiradigan sug'urta turlarini hisobga olishi zarur. Vaholanki, tarifikatsiya tizimi har bir sug'urta mahsuloti

bo'yicharisk omillari va sug'urtalanayotgan ob'yektlarning guruhlarini to'g'risida ma'lumotlar va ularga muvofiq keluvchi sug'urta tariflari hamda ularni qo'llash shartlarini ifodalaydi. Tarifkatsiya tizimini shakllantirishda risklarni guruhlashning eng optimal holatini aniqlash uning samaradorligini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Chunki, risklarni haddan ziyod ko'p guruhlarga ajratish ortiqcha xarajat va vaqtning sarflanishiga olib kelsa, yetarli darajada guruhlanmagan risklar, risklar anitiseleksiya va to'lovga qobiliyatsizligini keltirib chiqarishi mumkin. Xorij tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, sug'urtalovchilarda tarifkatsiya tizimining samarali bo'lishini ta'minlovchi omillardan biri bu, tariflarni hisoblash sohasi bo'yichamukammal malakaga ega mutaxassis (aktuariy) larning mavjudligi hisoblanadi. Hozirda, mamlakatimizda aktuariylarning faoliyatiga taaluqli qonunchilik juda takomillashmaganligini hisobga olib, ushbu qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish taklif etiladi.

Aktuariy sug'urta mahsulotlari va ko'rsatiladigan xizmatlarning narxini katta sonlar nazariyasi va hodisalarning ehtimollik qonuniyatlari hamda yillar davomida to'plangan statistik ma'lumotlardan foydalangan holda aniqlaydi. Aktuar hisob-kitoblar orqali aktuariylar sug'urta kompaniyasining faoliyatini strategik rejalashtirish, sug'urta portfeli tarkibini o'zgartirish hamda sifatini tahlil qilib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni oldindan ko'ra bilish xizmatlarini ko'rsatadi. Aktuariylarning faoliyatini yo'lga qo'yishda quyidagi yo'nalishlarni hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Ular quyidagi aktuar xizmatlar ko'rsatishi mumkin:

➤ sug'urta hodisasining yuz berish ehtimolini matematik hisob-kitob qilish;

➤ xar bir tavakkalchilik guruhlarini hamda jami sug'urta portfeli bo'yichazarar keltirishning takroriyliqi, og'irlik darajasi va ularning oqibatlarining ta'sirini oldindan belgilash;

➤ sug'urtalovchining daromadlarini sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har xil turlari bo'yicharejalashtirish.

➤ sug'urta tashkilotlarining sug'urta zahiralari va fondlarini hisob-kitob qilib, iqtisodiy-matematik jihatdan asoslash hamda ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

➤ sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish va sug'urta faoliyatini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash;

➤ sug'urta portfelinig har bir turi uchun tarif stavkasini mijozlar uchun qulay muddatlarini hisobga olgan holda belgilash;

➤ sug'urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

Hammaga ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sub'yektlar aktuariy ishtirokisiz sug'urta xizmatlariga iqtisodiy asoslangan narxlarni belgilay olmaydi. Ba'zi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotining hisoboti o'zining vakolatli shaxslaridan tashqari, aktuariy tomonidan ham tasdiqlanishi talab etiladi. O'zbekiston sug'urta bozorida aktuar hisob-kitoblardan foydalanish o'ziga xos o'ringa ega. Aktuariy sug'urta mahsulotlari va ko'rsatiladigan xizmatlarning narxini katta sonlar nazariyasi va hodisalarning ehtimollik qonuniyatlari hamda yillar davomida to'plangan statistik ma'lumotlardan foydalangan holda aniqlaydi. Aktuar hisob-kitoblar orqali aktuariylar sug'urta kompaniyasining faoliyatini strategik rejalashtirish, sug'urta portfeli tarkibini o'zgartirish hamda sifatini tahlil qilib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni oldindan ko'ra bilish xizmatlarini ko'rsatadi.

Qayta sug'urtalash munosabatlarini rivojlantirish va ularning ko'lamini yanada kengaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

➤ sug'urtalovchilarning tarifikatsiya tizimi aktuariy tomonidan to'g'riligi tasdiqlanishi lozim;

➤ sug'urtalovchilar tarifikatsiya tizimini kamida bir yilda bir marta qayta ko'rib chiqishi shart;

➤ aktuariylar sug'urtalovchilar tomonidan ixtiyoriy yoki qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy tarzda jalb etilishi mumkin va boshqalar.

Qayta sug'urtalashda sug'urtalovchilar tomonidan tarifkatsiya tizimi oqilona ishlab chiqilgandan so'ng sug'urta bozoriga chiqarilayotgan sug'urta xizmatlarining narxlari ushbu tizim asosida shakllantirilishi albatta, sug'urtalovchining yetarli darajadagi to'lov qobiliyatini va barqaror faoliyatini ta'minlashi mumkin. Shu o'rinda, ushbu tarifkatsiya tizimi asosida narxlangan sug'urta xizmatlarini sotish va ularning ko'lamini kengaytirish ham sug'urtalash jarayonini takomillashtirishning keyingi yo'nalishi hisoblanadi.

Hozirda sug'urta bozorida sotilayotgan sug'urta xizmatlarining katta qismi umumiy sug'urta sohasiga to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, sug'urta turlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, sug'urta xizmatlarini sotishning turli usullarini qo'llash mumkin. Albatta, sug'urta xizmatlarining sotilishida sug'urtalanuvchilarning to'lov qobiliyati va sug'urta madaniyati ham katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan sug'urtalovchilar sug'urtalanuvchilarning to'lov qobiliyatiga muvofiq ravishda sug'urta xizmatlarini ishlab chiqishi hamda sug'urta madaniyatini oshirish bo'yichatarg'ibot, tashviqot ishlarini amalga oshirib borishi sug'urta xizmatlarini sotish ko'lamining kengayishini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Sug'urta xizmatlarini sotish ko'lamini kengaytirish bo'yicha xorij tajribasini o'rgangan va mamlakatimizdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda sug'urtalovchilar tomonidan quyidagi yo'nalishlardagi faoliyatlarga alohida e'tibor qaratish taklif etiladi:

- sug'urtalovchilar tomonidan standartlashtirilgan sug'urta xizmatlarini sotishda tijorat banklari va pochta xizmati bilan yaqin hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish orqali, ularning respublika bo'yichatarqalgan tarmoqlaridan foydalanish;

- sug'urta xizmatlarini sotishda va taklif qilishda yangi axborot texnologiyalari, xususan internet tarmog'idan foydalanishni yo'lga qo'yish;

- aholi tomonidan sug'urta xizmatlarini sotib olishni rag'batlantiruvchi bir qancha chora-tadbirlarning davlat tomonidan amalga oshirilishi, xususan, jismoniy shaxslar tomonidan hayot sug'urtasiga sarflangan mablag'larni

ularning daromad solig'i bazasidan chiqarish, turli kasb egalari javobgarligi ish beruvchi tomonidan sug'urtalaganda, ish beruvchining sug'urtaga sarflagan mablag'alarini daromad solig'i bazasidan chiqarish va boshqalar;

➤ sug'urtalanuvchilarning sug'urta madaniyatini oshirish bo'yichatarg'ibot, tashviqot ishlarini, reklamani amalga oshirish va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.

Sug'urtalovchilar tomonidan sug'urtalashning samarali amalga oshirilishida sug'urta xizmatlarini sotish natijasida kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan sug'urta mukofotlarini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda umumiy sug'urta turlari bo'yichasug'urta zahiralari shakllantirish bo'yichatartib va qoidalar belgilangan. Xususan, 1- hisob guruhga kiruvchi sug'urta turlari bo'yichaishlab topilmagan sug'urta mukofotlari zahirasini shakllantirishda "Pro Rata Temporis" va «Yigirma to'rtdan bir» usulini qo'llanilishi belgilangan. Sug'urta zahiralari shakllantirishning ushbu usuli sug'urta shartnomalari soni kam miqdorda bo'lgan taqdirda, samarali hisoblanadi. Ma'lumki, fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, avtotransport sug'urtasi, tibbiy sug'urta kabi ommaviy sug'urta turlarini amalga oshirishda ko'p sonli sug'urta shartnomalarini tuzishga to'g'ri keladi. Sug'urta shartnomalari sonining ko'pligi sug'urta zahiralari "Pro Rata Temporis" usulida sug'urta zahiralari hisoblashda noqulayliklarni keltirib chiqarishi tabiiy hol hisoblanadi. Chunki, ushbu usulda sug'urta zahiralari har bir shartnoma bo'yichahar bir o'tgan kun bo'yichahisoblanadi.

Sug'urta shartnomalari soni haddan ziyod bo'lganda 1-hisob guruhi bo'yichasug'urta zahiralari «yigirma to'rtdan bir» usulida hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu usul ko'p sonli shartnomalarni ularning amal qilish muddatidan kelib chiqib guruhlash orqali sug'urta zahiralari hisoblash imkonini beradi. Bu esa, sug'urtalovchi tomonidan sug'urta zahiralari shakllantirishda va ularning hisobini amalga oshirishda qulayliklar yaratib beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, ommaviy sug'urta turlarini amalga

o'shiruvchi sug'urtalovchilarning sug'urta zahiralarini shakllantirishning «Yigirma to'rt dan bir» usulini yuqoridagi tartibda qo'llash taklif etiladi.

Oldingi boblarda ta'kidlanganidek, sug'urta risklarini birlamchi qabul qilishda ularni ikkilamchi, uchlamchi va hokazo tartibda qabul qilish munosabatlari, ya'ni qayta sug'urtalashning taraqqiy etganligi katta ahamiyat kasb etadi. Qayta sug'urtalashning mamlakat miqyosida rivojlanganligi, sug'urta munosabatlarining iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borishiga hamda sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatining barqaror bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. O'zbekistonda qayta sug'urtalashni takomillashtirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- qayta sug'urtalash munosabatlarining qonunchilik bazasini ta'minlash va qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida, qayta sug'urtalash munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qonun yoki me'yoriy hujjatni ishlab chiqish;

- qayta sug'urtalovchi tashkilotlarining shakllanish jarayonidaligini hisobga olgan holda, vaqtincha (2 yil), mahalliy sug'urtalovchilar tomonidan risklarni chet el qayta sug'urtalovchilariga uzatishda, avval ularni mahalliy qayta sug'urtalovchilarga taklif etishi shartligi, tartibini amalga kiritish;

- qayta sug'urtalash munosabatlarining qonunchilik bazasini ta'minlash va qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida, qayta sug'urtalash munosabatlarini tartibga soluvchi maxsus qonun yoki me'yoriy hujjatni ishlab chiqish va takomillashtirish kerak;

- qayta sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zahiralarini shakllantirish tartibini ishlab chiqish va ularning to'lov qobiliyati me'yorlarini belgilash.

O'zbekiston sug'urta bozorining zamonaviy holati, uning infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi mavjud sug'urta kompaniyalari faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirishni talab etmoqda. Sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirishdan maqsad sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta tashkilotlari investitsion jarayonlardagi

ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlashdan iborat. Qayta sug'urtalash sohasini ham sug'urta sohasi bilan bir qatorda rivojlantirib, takomillashtirib borish zamon talablariga aylanmoqda.

So'ngi yillarda sug'urta sohasi bilan bir qatorda qayta sug'urtalash sohasini ham rivojlantirish va takomillashtirish bo'yichahukumatimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2010 yilda "Qayta sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlari to'g'risida" gi nizomni ishlab chiqilishi ushbu soha bo'yicha qonuniy huquqiy bazani yanada takomillashtirdi va qayta sug'urtalash sohasi bo'yicha aniq shakl va talablarni belgilab berdi.

Qayta sug'urta qilish operatsiyalarini yuqori saviya va tez vaqtda amalga oshirish uchun birinchi navbatda ikki tomon, ya'ni qayta sug'urta qildiruvchi va qayta sug'urtalovchi o'rtasida tegishli aloqa o'rnatilgan bo'lmog'i lozim. Chunki, qayta sug'urta qilish operatsiyalarining muvafaqqiyatli o'tishi tomonlarning bir-birini qanchalik yaxshi bilishi, qanchalik bir-biri to'g'risida ko'p, aniq va aktual ma'lumotga ega ekanligiga bog'liqdir. Shuning uchun sug'urta firibgarligini oldini olish va sug'urta portfellarini barqaror qayta sug'urta qilish himoyasi bilan ta'minlashda sug'urtalovchilar o'rtasida axborot almashinuv vositalari yordamida aloqa o'rnatish katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan qayta sug'urtalash operatsiyalarida mamlakatimizda chel eldan qayta sug'urta mukofotlarini qabul qilish darajasi nisbatan pastroq. Bu jarayonni tez va samarali amalga oshirishni yo'lga qo'yish uchun esa, milliy sug'urta kompaniyalari xalqaro bozorda keng ko'lamda hamkorlik ishlarini amalga oshirmog'i lozim. Xalqaro bozorda samarali foliyat olib borish uchun esa xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan berilgan yuqori reyting darajasiga ham ega bo'lish zarur.

Mamlakatimizda qayta sug'urtalash sohasi bo'yichabir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, hozirgi kunda qayta sug'urtalash sohasi bo'yicha qonunchilikda ham amaliyotda ham bir qator muammolar mavjud.

Bunday muammolardan biri, qayta sug'urtalash mukofotlaridan olingan daromadlarni ikki yoqlama soliqqa tortishdir. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida 1994 yil 2 martda imzolangan "Daromadlarni ikki yoqlama soliqqa tortishdan qochish to'g'risida"gi bitimga asosan bir davlatda daromad ko'rgan va tegishli soliqni to'lagan shaxs ikkinchi davlatda shu soliqqa tortilishi mumkin emas. Lekin qayta sug'urta qilish operatsiyalari bo'yichaaynan shu masalada muammo yuzaga kelmoqda. Bunda qayta sug'urta qildiruvchi qayta sug'urta qilish mukofotini qayta sug'urtalovchiga uzatgandan keyin, qayta sug'urtalovchi davlatdan tegishli soliq to'langanligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma kelib, soliq organlari tomonidan ko'rib chiqilib, qayta sug'urtalash mukofotiga nisbatan foyda solig'i kamaytirilmagunicha, asosiy sug'urta mukofotiga nisbatan to'liq soliq to'lashga majbur bo'lmoqdalar. Qayta sug'urta qilish operatsiyalarida qayta sug'urta qilish mukofotlarining yirikligi va ularning asosan valyutada amalga oshirilishini hisobga olsak, sug'urtalovchilarning o'z mablag'larida va xorijiy valyuta rezervlarida vaqtinchalik yo'qotishlarni kuzatish mumkin.

Fikrimizcha, yuqorida aks ettirilgan jarayonni tezlashtirish va optimallashtirishni ta'minlovchi xalqaro ikki tomonlama bitimni qabul qilinishi, milliy sug'urta kompaniyalarimizni xalqaro sug'urta bozoridagi ishtirokini oshirishga yanada turtki bo'lar edi. Shu bilan birga, milliy sug'urtalovchilarimizdan qayta sug'urta mukofotlarini qabul qilib oluvchi yirik davlatlar, ayniqsa Buyuk Britaniya bilan ham shunday bitimni tuzilishi qayta sug'urta berilayotgan mukofotlar stavkalarini ozgina bo'lsada pasayishiga olib kelardi.

Milliy qayta sug'urta bozorining hozirgi kundagi eng katta muammolaridan biri bu qayta sug'urta mukofotlarining juda katta qismini chetga chiqib ketayotganligidir. Bu holat nafaqat sug'urta sohasiga, balki davlatning pul kredit siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Chunki boshqa davlatlar bilan amalga oshirilayotgan barcha qayta sug'urtalash operatsiyalari valyutada amalga oshiriladi va bu qayta sug'urta mukofotlari bilan bir qatorda

davlatimizdan valyutaning ham chiqib ketishiga olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qayta sug'urta qilish bo'yichaabsalyut ko'rsatkichlarning o'sishi sug'urta bozoridagi qayta sug'urta qilish operatsiyalari hajmi ulushining o'sishini bildirmaydi. Bu o'sish faqatgina milliy sug'urta bozorimizdagi sug'urta mukofotlarining umumiy o'sishi bilangina bog'liqdir. Milliy sug'urta kompaniyalarimiz qayta sug'urtalashni katta hajmda xorijiy kompaniyalar bilan amalga oshirishiga sabab mamlakatimizda qayta sug'urtaga katta hajmdagi risklarni qabul qila oluvchi kompaniyalarning juda kamligidir. Bu esa, mamlakatimiz qayta sug'urtalovchi kompaniyalari yana bittaga ko'paygani va qayta sug'urta mukotlarini mamlakatimizda olib qolish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Fikrimizcha, mamlakatimizda qayta sug'urta mukofotlarini chetga chiqib ketishini oldini olish va chetdan qayta sug'urta mukofotlarni hajmini oshirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz:

1.Hukumat ko'magi ostida barcha milliy sug'urta kompaniyalari ishtirokidagi sug'urta POOL ini tashkil etish lozim. Shunda juda katta hajmdagi risklarni ham mamlakatimizda sug'urtalashga imkon tug'iladi. Sug'urta POOL ini tashkil etish to'g'risida hukumat qarorini ishlab chiqish va ushbu vazifani amalga oshirishni Moliya vazirligiga yuklash maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

2.Qayta sug'urta qilishga iqtisodiy talab mavjud bo'lmagan hollarda, xorijga qayta sug'urta qilishning oldini olish uchun boshqa mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan qayta sug'urtalash kvotasining davlat tomonidan ishlab chiqishi lozim. Qayta sug'urta qilishning bunday huquqiy muvofiqlashtirilishi va bir vaqtning o'zida ichki sug'urta bozorida qayta sug'urta qilishni rag'batlantirishning solikli mexanizmi bilan qo'shimcha tarzda to'ldirilishi va mamlakatimizdan tegishli ravishda xorijga qayta sug'urta qilishga uzatishlar hajmini chegaralash mumkin.

3. Milliy qayta sug'urtalovchilarni monopol faoliyani cheklash maqsadida ichki qayta sug'urtalashning chegaraviy kvotasini belgilash. Bu ishni amalga

o'shish uchun "qayta sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlari to'g'risida"gi nizomga o'zgartirish kiritish orqali aniq kvotani belgilash mumkin.

4. Boshqarish huquqi milliy kompaniyalarda bo'lgan qo'shma qayta sug'urtalovchi aksiyadorlik kompaniyalarini tuzish orqali ham sug'urta mukofotlarini chetga chiqib ketishini oldini olish mumkin.

5. Qayta sug'urta bozorida yuzaga kelayotgan muammolardan biri bu, sug'urta sohasida qabul qilinayotgan ba'zi qonuniy-me'yoriy hujjatlarni qayta sug'urtalashni hisobga olmagan holda ishlab chiqilganidir. Xususan, "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish" qonuni bo'yicha ushbu sug'urta turi bo'yicha aniq stavkalar o'rnatilgan. Amaliyotda esa bu sug'urta turi bo'yicha katta miqdordagi sug'urta summolari vujudga kelgan. Ba'zi shartnomalar bo'yicha, bu sug'urta summolari ichki sug'urta bozorining kapital sig'imidan bir necha barobar katta ham bo'lgan. Shuning uchun bu sug'urta turi bo'yicharisklar qayta sug'urta qilishga uzatilishi kerak bo'ldi. Lekin bunda bu sug'urta turi bo'yichasug'urta stavkalari xorijga qayta sug'urta qilishga uzatish uchun zarur bo'lgan brutto stavkalarga mos kelmasligi aniqlangan. Shuning uchun sug'urta sohasiga tegishli qonuniy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinayotgan paytda qayta sug'urta qilishni ham hisobga olish zarur.

6. Qayta sug'urtalash sohasida yuzaga kelayotgan muammolardan navbatdagisi qayta sug'urtalovchilar o'z kapitallarini investitsiyalarga yo'naltirishi bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Qayta sug'urtalovchilarni ustav kapitali yuqori bo'lishini hisobga olgan holda, aytish mumkinki, qayta sug'urtalovchilarni keng qamrovli investitsion siyosatini amalga oshirishi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham qo'llab-quvvatlashi mumkin.

7. Qayta sug'urtalovchining "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni (sug'urta) va Buxgalteriya balansini (sug'urta) tuzish uchun zararlilik tebranishi tahlilini va yirik zararlar zahiralarini shakllantirishning uslubiyotini takomillashtirish;

8. Taqdim qilingan borderolar asosida, “Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot” lar asosida qayta sug’urtachi tuzilgan shartnomalar bo’yichayuzaga kelishi mumkin bo’lgan zararlar dinamikasi va moliyaviy holatga ta’sirini nazorat qilish uslubiyotini yaratish;

9. Obligatorli qayta sug’urtalash shartnomalarini amalga oshirish amaliyotida sug’urta mukofotlarini har bir risk bo’yichaemas, balki ma’lum muddat davomida qayta sug’urtaga berilgan risklarning jamiga nisbatan hisoblash tartibi qo’llash amaliyotini tatbiq qilish.

Xulosa qilib aytganda, tezkor axborotlar olish va foyda-zararlar dinamikasini tahlil qilishdan chiqarilgan xulosalar asosida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va moliyaviy resurslarni to’g’ri joylashtirini prognozlash imkoniyatlari yaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib, O’zbekistonda qayta sug’urtalashning rivojlanayotganligini va uni rivojlantirish hamda takomillashtirish bo’yichaimkoniyatlarning kattaligini ko’rishimiz mumkin. Ushbu imkoniyatlarda foydalanish va yuqorida keltirilgan yo’nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish, mamlakatimizda sug’urtalash va qayta sug’urtalash munosabatlarini takomillashishini ta’minlashi shubhasizdir. Bu esa o’z navbatida, sug’urta sohasining iqtisodiyotdagi o’rnining ortishiga va uning barqaror rivojlanishiga turtki beradi.

### **3.2. Qayta sug’urtalashning xalqaro tajribasini O’zbekistonda qo’llash masalalari**

Barchaga ma’lumki, Yevropa rivojlangan mamlakatlarida sug’urta sohasi iqtisodiyotning ajralmas sohalaridan biri hisoblanadi. Sug’urta sohasining iqtisodiyotga ko’rsatidigan ijobiy ta’siri katta salmoqqa ega bo’lib, ushbu soha bo’yichaYevropa mamlakatlarida katta tajriba to’plangan. O’zbekiston Respublikasida sug’urta sohasining shakllanish bosqichini kechirayotganligini hisobga olsak, xorij tajribasini o’rganish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash mumkin. Yevropa mamlakatlarida Germaniya o’ziga

xos rivojlangan sug'urta tizimiga egaligi bilan ajralib turadi. Germaniya sug'urta bozori o'ziga xos rivojlanish bosqichlarini bosib o'tib bugungi kunga kelib dunyo yuqori rivojlangan sug'urta tizimiga ega davlat hisoblanadi. Shuning uchun, sug'urta sohasi keng taraqqiy etgan Germaniyaning tajribasini o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir. Germaniya sug'urta bozori nihoyatda yirik sug'urta tashkilotlarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Mazkur tashkilotlarning chet davlatlardagi faoliyati ham katta salmoqqa ega. Ma'lumki, XX asrning 90 yillaridan boshlab, Sharqiy Yevropada yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari osha boshladi. Bu Evropa sug'urtalovchilari uchun o'z faoliyatini geografik jihatdan kengaytirishga imkon berdi. Hozirgi kunda Sharqiy va Markaziy Evropada etakchilik qilayotgan nemis sug'urta tashkilotlaridan Allianz, AXA-Colonia, ERGO kabilarni keltirish mumkin. Ular asosan Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Polsha va Boltiq bo'yi mamlakatlarida etakchilik qiladilar.

Germaniya sug'urta bozorining yana bir o'ziga xos tomoni sug'urtalovchilarning yangi axborot texnologiyalaridan, xususan internetdan keng foydalanishlaridir. Internetning keng miqyosda ommalashuvi Yevropa sug'urta bozoriga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Uning afzalligi shundan iboratki, internet sug'urta shartnomasining vositachilarsiz bevosita tuzish imkonini beradi. Bundan tashqari, internetning umumjahon ahamiyatga ega ekanligi sug'urtalovchilar uchun sug'urta maydonini kengaytirish imkonini beradi. Sug'urtalovchilar agentlik tizimini saqlab qolgan holda o'z xizmatlarini internet orqali sotish uchun o'z saytlarini yaratmoqda. Ba'zi sug'urtalovchilar esa faqatgina internet orqali xizmatlarni sotishga ixtisoslashmoqdalar. Masalan, nemis sug'urtalovchi Hamburg-Mannheimer internet orqali sug'urta xizmatlarini sotuvchi shu'ba korxonasini tashkil qilgan. Lekin, internet orqali sug'urta xizmatlarini sotishning uchinchi shakli ham ma'lum darajada rivojlandi. Bunda bir nechta sug'urta tashkilotlari o'z sug'urta xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni bir saytga joylashtirmoqdalar. Mazkur tadbir sug'urta xizmatlarini standartlashtirish va narxlarning engiluvchanligini ta'minlashga

olib kelmoqda. Germaniyaning yirik sug'urtalovchilari Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati (ingl. *Munich Re*), Gannover qayta sug'urtalash jamiyati (nem. *Hannover Rueck*), Cologne Re hisoblanadi.

Jahon sug'urta bozorida eng katta salmoqqa ega bo'lgan davlatlardan biri bo'lgan, AQSHning sug'urta sohasidagi tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. AQSH sug'urta bozori jahonda tutgan ulushi bo'yicha etakchi o'rinda turadi. AQSHning qayta sug'urta sohasidagi yirik sug'urtalovchilari General Re, Reinsurance Group of America, Transatlantic Re lar hisoblanadi.

Qayta sug'urtalash bozorini jahon talablariga mos ravishda rivojlantirish va xalqaro sug'urta bozorida faoliyat olib borish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim rol o'ynaydi. Xalqaro sug'urta bozorida dunyoning yirik sug'urta kompaniyalari birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirish uchun birlashadilar.

Qayta sug'urtalashni O'zbekistonda yanada takomillashtirish uchun xalqaro amaliyotda qayta sug'urta shartnomalarini tartibga solishda umum e'tirof etilgan ayrim shartlarni o'rganib chiqish yaxshi samara beradi. Xalqaro obligator qayta sug'urtasi shartnomalarida ba'zi shartlar unchalik katta bo'lmagan darajadagi o'zgarishlar bilan qo'llanilishi mumkin. Shartnomada ishlatiluvchi kichik shartlar mazmuni qayta sug'urtaning qanaqa turi qo'llanilishiga qarab o'zgarishi mumkin. An'anaviy kichik shartlarda qayta sug'urta to'lovlarning miqdorini aniqlash texnikasi va hisob-kitobini olib borish usullarining o'ziga xos xususiyatlari bayon qilinadi.

«Taqdir va hisob-kitob orqasidan borish». Ushbu shartga muvofiq, qayta sug'urtachi faqat tashqi sabab bilan ro'y bergan zararlar uchun javobgar hisoblanadi. Tashqi sabab natijasida yuz bergan zarar turiga to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachining xatti-harakati bilan bog'liq bo'lmagan omillar ta'sirida yuzaga kelgan zararlar kiradi. Bu esa, to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi yuzma-yuz to'qnashgan majburiyatlarga qayta sug'urtachi ham duch kelishini bildiradi. Shu sababli, qayta sug'urtachi sedent tomonidan amalga oshirilayotgan to'lovlarni e'tibor bilan kuzatib borishi lozim. "Taqdir orqasidan borish" kichik shartiga

muvoftiq, sug'urtachi va qayta sug'urtachi zarardagi o'z ulushlarini qabul qilishi zarur. Shu bilan birgalikda, qayta sug'urtachi o'zining manfaatlarini himoya qilish maqsadida, qayta sug'urta shartnomasiga qator shartlar kiritishi mumkin. Masalan, agar sug'urtachi o'z ishini mukammal biluvchi hisoblansa va u hamma vaqt qayta sug'urta shartnomasiga ega bo'lmagan sug'urtachi singari ish yuritsa, «Sug'urtachi sug'urta shartnomasiga o'zi zarur deb topgan o'zgartirishlarni kiritishi mumkin» mazmunidagi qo'shimcha shart qayta sug'urtachi tomonidan qayta sug'urta shartnomasiga kiritilishi mumkin. Yoki, qayta sug'urta shartnomasiga «sug'urtachi qayta sug'urtachining roziligisiz sug'urta shartlariga, andarrayting tamoyillariga mustaqil o'zgartirish kiritish huquqiga ega emas» mazmunidagi kichik shartni belgilab qo'yishi mumkin. Qayta sug'urtachi qayta sug'urta shartnomasi bo'yichaolgan majburiyatni nazorat qilish uchun qo'shimcha shartlar kiritilishi zarur deb hisoblaganda, ushbu mazmundagi shartlar qayta sug'urta shartnomasiga kiritadi. «Hisob-kitob orqasidan borish» tamoyilini amalda qo'llanilishi va uni qo'llashni cheklashlar bo'yichaingliz sudi qarorlaridan misol keltiramiz. 80-yillarning boshlarida AQSHda faoliyat olib borgan to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachilar asbest ishlab chiqaruvchilarning javobgarligini sug'urtalash natijasida ko'p miqdordagi zararga duch keldilar. Asbestdan foydalanish natijasida yuzaga kelgan zararni qoplashda qayta sug'urtachini ishtirok etishi to'g'risida Angliya sudi qaror qabul qilgan. Qo'zg'algan da'voni sudda ko'rib chiqish natijasi jahondagi yirik qayta sug'urtachilarning faoliyatiga ham jiddiy ta'sir qildi. 1984 yilda, Velington bitimiga asosan to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachilar guruhi o'z resurslarini birlashtirdi. Birlashtirishning asosiy maqsadlaridan biri, sud harajatlari miqdorini kamaytirish edi. Sud harajatini kamaytirish imkoniyati, bitimni imzolagan har bir to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi uchun paydo bo'ldi. Chunki, bitim a'zolari har bir da'vo bo'yichapaydo bo'lgan majburiyatlarni birgalashib bajarish zarur edi. 1991 yilda majburiyat bilan bevosita bog'liq bo'lmagan sug'urtachilardan biri o'zining qayta sug'urtachisidan to'lovni amalga oshirishni talab qilib ko'rdi. U o'z talabini qondirishni qayta sug'urta

shartnomasida belgilangan «hisob- kitob orqasidan borish» majburiyatiga asosladi. London Oliy sudi sug'urtachiga uning sug'urtalanmagan ob'ekt uchun qayta sug'urta qoplamasi olish to'g'risidagi talabini rad qildi. Shunday qilib, sud "hisob-kitob orqasidan borish" shartiga asoslanib, qayta sug'urtachi qayta sug'urtaga qabul qilmagan sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zararni qoplab bermasligi to'g'risida qaror qabul qildi.

«Hatolar va yanglishishlar haqida kichik shart». Borderoni tuzishda, sug'urta risklarini qayta sug'urta shartnomasiga kiritishda, ular bilan bog'liq qayta sug'urta mukofotini hisoblashda, zarar miqdorini va undagi qayta sug'urtachining ulushini hisoblashda sug'urtachi tomonidan bilmasdan, ataylab qilinmagan xatolar ushbu kichik shartga asosan, sug'urtachining qayta sug'urta qoplamasi olish huquqidan mahrum qilmaydi. Bu holatlarda, xato va yanglishishlarni topish bilan, sug'urtachi tomonidan qayta sug'urtachi ogohlantirilmog'i lozim.

Yuqori darajada vijdonlilik tamoyilidan kelib chiqib, qayta sug'urtaga beriluvchi risk miqdorini hisoblashda sug'urtachi o'zaro kelishilgan anderayting tamoyillariga to'liq amal qilishi lozim. To'g'ridan-to'g'ri shartnomani tuzishda sug'urtachi qayta sug'urta shartnomasiga muvofiq, ehtiyotkorlik va batartiblik bilan ish ko'rmog'i lozim. Qayta sug'urta shartnomasiga taaluqli bo'lgan sug'urtachining kitoblarini, hisob varaqalarini va boshqa shu kabi hujjatlarni tekshirish huquqini qayta sug'urta shartnomasida belgilash, yuqorida keltirilgan vijdonlilik tamoyilining buzilmasligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu huquq sug'urtachining hisob varaqalaridagi yozuvlarni, buxgalteriya kitoblarini, to'g'ridan-to'g'ri shartnomasini, zararni tartibga solish to'g'risidagi hujjat va boshqa qayta sug'urta shartnomasi bilan bog'liq hujjatlarni tekshirishga tatbiq qilinadi. Amaliyotda, qayta sug'urtachilar ularga berilgan mazkur huquqdan kam foydalanadilar. Shunga qaramasdan, to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomalarini tuzishda ushbu huquq, qayta sug'urtachining moliyaviy manfaatlariga rioya qilinishini ta'minlovchi kafil bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi hollarda, sug'urtachi qayta sug'urtachidan uning buxgalteriya kitoblarini,

hisobotlarini tekshirishni talab qilishi mumkin. Buxgalteriya hujjatlarini tekshirishdan maqsad, qayta sug'urtachiga qayta sug'urta shartnomasi shartlariga rioya qilinishini ko'rsatishdir yoki to'g'ridan-to'g'ri sug'urta va qayta sug'urta andarraytingini soddalashtirish, yaxshilash yuzasidan birgalikda qarorlar qabul qilishdir.

«Arbitr tayinlash to'g'risida»gi kichik shart. Deyarli barcha qayta sug'urta shartnomalarida, qayta sug'urta shartnomasining bajarilishi bo'yichayuzaga kelgan nizolarni ko'rib chiqish maxsus tayinlangan arbitriar guruhiga yuklanadi. Sudlarning umumiy sud qilish huquqiga, odatda, faqat tasdiqlangan qarzdorlikning to'llanmaslik hollari bilan bog'liq nizolarni echish vakolati beriladi. Arbitriar tarkibi uch kishidan iborat bo'ladi. Har bir tomon bittadan arbitr tayinlashi mumkin. Bosh arbitrni shartnoma tomonlari birgalikda tayinlaydi. Bosh arbitrlarni tayinlash borasida tomonlar kelisha olmasa, xolis bo'lgan uchinchi tomon bosh arbitrni tayinlaydi (masalan, sud, yoki savdo palatasi). Odatda, sug'urta va qayta sug'urta jamiyatlarining xodimlari yoki pensiyaga chiqqan xodimlari arbitr vazifasiga tayinlanadi. Bundan tashqari, arbitriar guruhi majlisni sug'urtachi sendenning bosh ofisi joylashgan joyda o'tkazishga kelishib oladi. Ko'p hollarda, shartnomaning «Arbitriar to'g'risida»gi shartida arbitriar guruhining qarori adolatlilik va o'ta vijdonlilik tamoyillariga asoslanishi, ish faoliyatida shakllangan odat me'yorlariga tayanilishi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan kichik shartlardan tashqari, nisbiy obligator qayta sug'urta shartnomalarida boshqa shartlar ham qo'llanilishi mumkin, masalan: lider to'g'risida yoki qo'llaniluvchi huquq tizimi to'g'risidagi kichik shartlar. Qayta sug'urta shartnomasida ishtirok etuvchi qayta sug'urtalovchilar soni ko'pchilikni tashkil qilgan hollarda lider to'g'risidagi kichik shart qo'llaniladi. Ushbu kichik shartda lider qayta sug'urtachining qarorlarini bajarish boshqa qayta sug'urtachilar uchun majburiyligi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan kichik shartlarni nonisbiy qayta sug'urta shartnomalarida qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Nonisbiy va nisbiy

qayta sug'urta o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, birinchi holatda sedent va qayta sug'urtachining mukofotlari tubdan farq qiladi. Odatda, nonisbiy qayta sug'urta shaklida to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi past miqdorda qayta sug'urta mukofoti evaziga maksimal, keng bo'lgan qayta sug'urta qoplamasini olishga harakat qiladi. Qayta sug'urtachi esa, o'z navbatida, qayta sug'urtaga qabul qilayotgan riskka adekvat bo'lgan qayta sug'urta mukofoti olishga va to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachi real muhtoj bo'lgan qayta sug'urta qoplamasi bilan ta'minlashga harakat qiladi. "Zararlar va zararlilik eksedenti asoslarida" qayta sug'urta shakli sendentning risklarini tanlash borasidagi anderrayterlik siyosatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Chunki yirik miqdordagi zararlar yuzaga kelgan hollarda, sendentning javobgarligi me'yori qayta sug'urta shartnomasida belgilangan ustunlik miqdorida chegaralanadi. SHuning uchun, "zarar eksedenti asosida" qayta sug'urta shaklida shartnoma shartining "taqdir orqasidan borish" tamoyili qo'llanilmaydi. «Xatolar va yanglishishlar» to'g'risidagi kichik shart ham "zarar ekssedenti" qayta sug'urta shartnomasining o'ziga xos xususiyatlarini va elementlarini hisobga olgan holda qo'llanilishi mumkin.

Faqat nonisbiy qayta sug'urta shartnomasida qo'llaniluvchi, maxsus kichik shartlar jumlasiga quyidagilar kiradi: "butunlay netto-zarar" to'g'risidagi kichik shart; "vaqt bo'yicha" kichik shart; "majburiyatlar va hisob-kitoblarni indeks qilish" to'g'risidagi kichik shart. Nonisbiy qayta sug'urta shaklida sug'urtachining butunlay netto-zararini qayta sug'urtachi tomonidan qoplab berilishi uchun shartnomaga "butunlay netto zarar" haqidagi kichik shart kiritilishi zarur. "Butunlay netto-zarar"— bu, barcha qaytarilgan summalar chegirilgandan keyin sug'urtachiga to'lanadigan zarardir. Qaytariladigan summalar misol: qayta sug'urtada ishtirok etuvchi qayta sug'urtachidan regress ko'rinishida qaytariladigan summalar, obligator yoki fakultativ qayta sug'urta shaklida sug'urtachining shaxsiy chegirmadan ushlab qolinuvchi summalar va sug'urtachiga boshqa to'lanishi lozim bo'lgan summalar. Bitta sug'urta voqeasi ro'y berishi natijasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bir

nechta sug'urta hodisalari riskini sug'urta qilish shartnomasini obligator nisbiyga qayta sug'urtalashda tomonlar "soatli shart" da kelishib oladilar. Aniq belgilangan vaqt muddatida sodir bo'lgan barcha alohida zararlar bitta umumiy zararlar yig'indisiga birlashtiriladi. Shartnomada belgilangan vaqt muddatining davomiyligi riskning xarakteriga bog'liq. Odatda, yong'in, er qimirlash, dovul yoki siyosiy risklarga qarshi sug'urtalarning qayta sug'urtasi uchun 72 soat, suv toshqini va suv bosish risklarining sug'urtasi uchun 168 soat vaqt muddati belgilanadi. Shartlarda quyidagi me'yorlar nazarda tutiladi:

1. Agar sug'urta hodisasini kvalifikatsiya qilish maqsadida sug'urtaga qabul qilingan risklar birlashtirilsa, u holda albatta ushbu shart qanaqa sug'urta risklariga tatbiq qilinishi (masalan, yer qimirlashi natijasida yuzaga kelgan yong'in, yer qimirlashining o'zi; dovul natijasida sodir bo'lgan suv toshqini va suv bosishi yoki dovulning o'zi) ko'rsatiladi.

2. Zararni birlashtirish uchun hududiy cheklanishlar bormi? Agar, bo'lsa, ular qanday cheklanishlar (masalan, suv toshqini va suv bosishi tumanlar bo'yicha, daryoning tumanlarga yaqinligiga qarab tumanlar bo'yicha, fuqarolarning bo'ysunmaslik harakati esa shaharlarning aniq chegarasi bo'yicha cheklanishlar). Nisbiy qayta sug'urtada sug'urta mukofoti va zararlari sug'urtachi va qayta sug'urtachi o'rtasida nisbiy ravishda taqsimlanadi. Inflatsiyaning sug'urta summasiga nisbatan zarar miqdoriga ko'proq ta'sir ko'rsatishi sug'urta hodisasi bilan bog'liq to'lovlar miqdorini keskin oshishiga olib keladi. Inflatsiya ta'siri natijasida sug'urta to'lovlari miqdorining oshgan qismi sug'urtachi va qayta sug'urtachi manfaatlariga bir xilda taqsimlanadi. "Zarar eksedenti" qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovlarining miqdorini oshishi ko'proq qayta sug'urtachi manfaatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, zararning ustunlikdan oshadigan qismi o'ssada, sug'urtachining portfeli miqdori o'zgarishsiz qoladi yoki ustunlikning real miqdori kamayadi.

Mol-mulk sug'urtasida sug'urta qilingan mol-mulk qiymatining real bahosi inflatsiyaning ta'siri natijasida oshadi. Mos ravishda, "eksedent zarari"

qayta sug'urta shartnomasida belgilangan ustunlik miqdori esa pasayadi. Shu sababli, qayta sug'urtachi ustunlik miqdori va sug'urtalangan manfaatning real qiymatini o'zgarishi bilan bog'liq javobgarlik chegaralariga tuzatish kiritishni talab qilishi zarur. Inflatsiya ta'siri natijasida zararlar miqdorini oshish muammosi ahamiyati ayniqsa, transport vositalari egalarining javobgarligini va umum fuqarolik javobgarliklarini sug'urtalash sohalarida oshmoqda. Chunki ushbu sug'urta turlarida zararlarni tartibga solish uchun muddat talab qilinadi. Zarar miqdorining o'sishiga inflatsiyadan tashqari, ish haqining oshishi, zararni tartibga solish jarayoniga ta'sir qiluvchi boshqa faoliyat turlarida yuz beruvchi o'zgarishlar (huquqiy xizmat sohasi, qonunchilik, tibbiyot xizmatining qiymatini oshishi) ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Amalda aktuar hisoblarni qo'llay turib ham zarar miqdorining bunday o'sish me'yorini hisoblash mumkin emas.

"Eksedent zarari" qayta sug'urta shartnomasi bo'yichazarar miqdorini oshishi qayta sug'urta mukofotining miqdoriga ta'sir ko'rsatmaydi. Shartnomaning "tuzatish yoki indeksatsiya" to'g'risidagi kichik shartini kiritish orqali inflatsiya omilining ta'siri hisobga olinadi. Ushbu kichik shart yordamida ustunlik va qayta sug'urtaning majburiyati miqdori o'rtasidagi mutanosiblik doimiy saqlanadi. Zarar miqdorining har qanday o'zgarishi qayta sug'urta shartnomasining tomonlari o'rtasidagi majburiyatlarni mutanosibligiga ta'sir etmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ko'p milliy qonunchiliklarida qayta sug'urta munosabatlari fuqarolik huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinmaydi. Moliyaviy qayta sug'urtaning murakkab tarkibi, kompleks apparat tushunchalari, turli xil maqsadlari, uni qonunchilik yordamida tartibga solishni yanada, murakkablashtiradi.

Sug'urta huquqi bo'yichahalqaro uyushma tomonidan olib borilgan o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, dunyoda ko'plab mamlakatlarning qonun tizimida moliyaviy qayta sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi me'yorlar o'rin olmagan (Argentina, Finlandiya, Isroil, Daniya, Fransiya). Ba'zi davlatlarda qayta sug'urtaning bunday turi qo'llanilmaydi (Sloveniya,

Sal'vador va boshqa qator mamlakatlar). Moliyaviy qayta sug'urta munosabatlari keng tarqalagan davlatlarning davlat sug'urta nazorati idoralarining qarorlarini tahlil qilish natijasida moliyaviy qayta sug'urtani huquqiy tartibga solish sohasidagi tendensiyalarni aniqlashimiz mumkin. Avstraliyada imzolanuvchi, sug'urtachiga yashirin shaklda zayom kapitalini taqdim qiluvchi moliyaviy qayta sug'urta shartnomalari sug'urta nazorati idorasi bilan kelishilgan bo'lishi lozim. Fransiyada sug'urta riski taqsimlanishining har qanday shakli (to'g'ridan-to'g'ri sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari o'rtasida farq qilinmagan holda) qayta sug'urta deb yuritiladi.

Germaniyada sug'urta yoki qayta sug'urta faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan ikki yuridik shaxs o'rtasida tuzilgan qayta sug'urta shartnomasi moliyaviy qayta sug'urta deb ataladi.

Shvetsariyada moliyaviy qayta sug'urta shartnomalari ham oddiy qayta sug'urta shartnomalari uchun belgilangan talablarga javob berishi lozim. Moliyaviy qayta sug'urtaning maqsadi moliyaviy natijani yaxshilash, bo'sh aktivlar bilan ta'minlash, moliyaviy oqimni optimallashtirish bo'lsada, oddiy qayta sug'urta maqsadidan kam farq qiladi. Shu sababli, sug'urtachi o'z faoliyati davomida sug'urta risklari bilan bir qatorda kredit, investitsiya, moliyaviy risklarga ham duch keladi. Moliyaviy qayta sug'urta shartnomalari shu kabi risklarning bir qismini qayta sug'urtachiga berishga xizmat qiladi. Nazorat qiluvchi idoralarning "moliyaviy qayta sug'urta qayta sug'urtaning mohiyati va maqsadiga mos kelmaydi" deb fikrlashiga ko'pchilik tadqiqotchilar qo'shilmaydilar.

Buyuk Britaniyada, sug'urta nazorati idoralarining moliyaviy qayta sug'urta shartnomasiga qo'ygan talablaridan biri — bu, sug'urta riskining ancha miqdordagi qismini qayta sug'urtachiga berishdir. Ushbu keltirilgan ta'rifda muammoga duch kelgan narsa bu, riskning ancha qismini aniqlashdir. Faqat sug'urta nazorati idoralari tomonidan qayta sug'urta operatsiyalarining samarasi

baholanishiga qaramasdan, agar moliyaviy qayta sug'urta shartnomasi sug'urtachining moliyaviy holatini va to'lov qobiliyatini yaxshilanishiga yordam bersa, bunday qayta sug'urta shartnomasini tuzish maqsadga muvofiqdir.

AQSHdagi ko'plab Shtatlarning fuqarolikni tartibga soluvchi qonunchiliklarida qayta sug'urtaga to'g'ridan-to'g'ri ta'rif berilmagan. "Qayta sug'urta shartnomasi" tushunchasi ostida qayta sug'urta belgisiga ega bo'lgan har qanday shartnoma tushuniladi. Bundan tashqari, 1992 yilda sug'urtachining buxgalteriya hisobida brutto-majburiyatini aks ettirish bo'yichayangi tartib o'rnatildi. Ushbu talabga asosan, to'lanmagan zarardagi qayta sug'urtachining ulushi yoki ishlab topilmagan mukofot miqdori sug'urtachining brutto majburiyati tarkibida hisobga olinadi. Bu tartib moliyaviy qayta sug'urta operatsiyalarining samarasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yuqorida keltirilgan moliyaviy qayta sug'urtaning huquqiy ta'rifi va moliyaviy qayta sug'urta shartnomasida ishtrok etuvchi sug'urtachi va qayta sug'urtachi faoliyatlarini bunday tartibga solish tahrirga muhtoj. Sug'urta tashkilotlarining risklarini boshqarishda moliyaviy qayta sug'urta mutlaqo yangi tarmoqligini inobatga olishimiz zarur. Moliyaviy qayta sug'urtaning maqsadi sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va sug'urtachining to'lov qobiliyatini mustahkamlash hisoblanadi. Bu borada moliyaviy qayta sug'urtaning maqsadi an'anaviy qayta sug'urta maqsadi bilan mos keladi. Shu bilan birga, moliyaviy qayta sug'urta ham an'anaviy qayta sug'urta kabi to'g'ridan-to'g'ri sug'urtachilarning sug'urta operatsiyalarini moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda paydo bo'lgan an'anaviy konsepsiyalar alohida sug'urta turi bo'yichasug'urta operatsiyalarining natijasini yoki ma'lum sug'urta turlari yig'indisiga nisbatan tatbiq qilinuvchi "zararlilik eksedenti asosida" qayta sug'urta shartnomalari qayta sug'urta to'g'risidagi tushunchalarni tubdan o'zgartiradi. An'anaviy va moliyaviy qayta sug'urtaning to'g'ridan-to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicharisklarni qayta taqsimlash bilan bog'liq iqtisodiy mohiyati deyarli farq qilmadi. Bundan tashqari, qayta sug'urta shartnomasi

shakllari, uning sub'yektlari tarkibi (sug'urtachi va qayta sug'urtachi) ham mos keladi. Umuman olganda, moliyaviy qayta sug'urtaning iqtisodiy tabiati an'anaviy qayta sug'urtaning mohiyatiga va uning maqsadlariga qarama-qarshi kelmaydi va shuning uchun moliyaviy qayta sug'urta kelajakda keng sohalarda qo'llanilish istiqboliga ega.

### **3-bob boyicha xulosa**

Xulosa qilib aytganda, sug'urta bozorida sotilayotgan sug'urta xizmatlarining katta qismi umumiy sug'urta sohasiga to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, sug'urta turlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, sug'urta xizmatlarini sotishning turli usullarini qo'llash mumkin. Albatta, sug'urta xizmatlarining sotilishida sug'urtalanuvchilarning to'lov qobiliyati va sug'urta madaniyati ham katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai-nazardan sug'urtalovchilar sug'urtalanuvchilarning to'lov qobiliyatiga muvofiq ravishda sug'urta xizmatlarini ishlab chiqishi hamda sug'urta madaniyatini oshirish bo'yichatarg'ibot, tashviqot ishlarini amalga oshirib borishi sug'urta xizmatlarini sotish ko'lamining kengayishini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

O'zbekiston sug'urta bozorining zamonaviy holati, uning infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi mavjud sug'urta kompaniyalari faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirishni talab etmoqda. Sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirishdan maqsad sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta tashkilotlari investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlashdan iborat. Qayta sug'urtalash sohasini ham sug'urta sohasi bilan bir qatorda rivojlantirib, takomillashtirib borish zamon talablariga aylanmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi davrda jamiyatning va iqtisodiyotning turli sohalari barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashda qayta sug'urtaning zarurligi namoyon bo'lmoqda va ahamiyati ortib bormoqda. Respublikamiz qayta sug'urta bozori bozori davlat yaratib bergan imkoniyatlardan foydalangan holda keng ko'lamda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Qayta sug'urta sug'urtaning mustaqil tarmog'i hisoblanib, katta hajmdagi risklardan himoya qiladi. Qayta sug'urta xalqaro biznes hisoblanib, tashkilotning aktivlaridan oshib ketadigan javobgarliklarni (risklarni) milliy va jahon sug'urta bozorida ikkilamchi taqsimlaydi. Qayta sug'urtani tashkil etish va rivojlantirishda muammolar mavjud:

➤ Hukumat tomonidan ikkiyoqlama soliqqa tortishdan qochish bo'yicha huquqiy ba'za ishlab chiqilmaganligi va chetdan kelayotgan qayta sug'urta mukofotlarini soliqqa tortiladigan ba'zadan chegirish bo'yichamuammolar mavjudligi;

➤ Hozirgi kundagi yana bir muammolardan biri sug'urtalovchilar bilan bir qatorda qayta sug'urtalovchi kam sonli kompaniyalarning ham investitsiya faoliyatidan samarali foydalana olmayotganligidir. Ya'ni sug'urtalovchilarning investitsion faoliyati daromadlari ularning yalpi daromadlarining yigirma foizidan ham oshmayotganligi.

➤ Milliy sug'urta bozorida qayta sug'urtalovchi kompaniyalar sonining kamligi qayta sug'urta bozorida monopoliyani yuzaga keltirayotganligi va natijada qayta sug'urtalash mukofotlarining milliy bozordagi stavkasi balandligi sababli ehtiyoj bo'lmaganda ham chetga qayta sug'urtalashni amalga oshirilayotganligi.

➤ sug'urtalovchilarda tarifkatsiya tizimining samarali bo'lishi va tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlashida muhim omil bo'lgan aktuariylar faoliyatini yo'lga qo'yish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

➤ Qayta sug'urta sohasini to'liq qamrab oladigan "Qayta sug'urtalash faoliyati to'g'risida" qonun ishlab chiqish. Qonun xalqaro talablarga to'liq mos keladigan bo'lishi lozim. Ushbu vazifani bajarilishi qayta sug'urta sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini oladi va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan sug'urta qallobligini ma'lum darajada cheklaydi.

➤ Aktuar hisob-kitoblar orqali aktuariylar sug'urta kompaniyasining faoliyatini strategik rejalashtirish, sug'urta portfeli tarkibini o'zgartirish hamda sifatini tahlil qilib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashni oldindan ko'ra bilish xizmatlarini ko'rsatadi. Xorij tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, sug'urtalovchilarda tarifkatsiya tizimining samarali bo'lishini ta'minlovchi omillardan biri bu, tariflarni hisoblash sohasi bo'yichamukammal malakaga ega mutaxassis (aktuar) larning mavjudligi hisoblanadi. Hozirda, mamlakatimizda aktuariylarning faoliyatiga taaluqli qonunchilik takomillashtirildi. Aktuariylar ishini tashkil etish uchun yo'riqnomalar ishlab chiqish va undan foydalanishning uslubiy qo'llanmasi yaratish zarur. Qayta sug'urtalashda sug'urtalovchilar tomonidan tarifkatsiya tizimi oqilona ishlab chiqilgandan so'ng sug'urta bozoriga chiqarilayotgan sug'urta xizmatlarining narxlari ushbu tizim asosida shakllantirilishi albatta, sug'urtalovchining yetarli darajadagi to'lov qobiliyatini va barqaror faoliyatini ta'minlashi mumkin.

➤ Qayta sug'urtalash munosabatlarini rivojlantirish va ularning ko'lamini yanada kengaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

➤ sug'urtalovchilarning tarifkatsiya tizimi aktuar tomonidan to'g'riligi tasdiqlanishi lozim;

➤ sug'urtalovchilar tarifkatsiya tizimini kamida bir yilda bir marta qayta ko'rib chiqishi shart;

➤ aktuariylar sug'urtalovchilar tomonidan ixtiyoriy yoki qonunchilikda belgilangan tartibda majburiy tarzda jalb etilishi mumkin va boshqalar.

➤ sug'urtalovchilar tomonidan standartlashtirilgan sug'urta xizmatlarini sotishda tijorat banklari va pochta xizmati bilan yaqin hamkorlik

munosabatlarini yo'lga qo'yish orqali, ularning respublika bo'yichatarqalgan tarmoqlaridan foydalanish;

➤ sug'urta xizmatlarini sotishda va taklif qilishda yangi axborot texnologiyalari, xususan internet tarmog'idan foydalanishni yo'lga qo'yish;

➤ hayot sug'urtasi sohasida faoliyat yurituvchi sug'urtalovchilar tomonidan aholiga qulay sug'urta xizmatlari turlarini taklif etish, xususan nikoh sug'urtasini rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki ma'lumki milliy o'zbek an'analarimizga ko'ra ota-onalar tomonidan farzandlarining nikoh ma'rosimlarini o'tkazish maqsadida yillar davomida pul mablag'alari jamg'arilib boriladi. Ushbu mablag'alarni nikoh sug'urtasi orqali sug'urtalovchilarga jalb etish sug'urtalovchi uchun ham sug'urtalanuvchi uchun ham foydali ahamiyatga ega;

➤ aholi tomonidan sug'urta xizmatlarini sotib olishni rag'batlantiruvchi bir qancha chora-tadbirlarning davlat tomonidan amalga oshirilishi, xususan, jismoniy shaxslar tomonidan hayot sug'urtasiga sarflangan mablag'larni ularning daromad solig'i bazasidan chiqarish, turli kasb egalari javobgarligi ish beruvchi tomonidan sug'urtalaganda, ish beruvchining sug'urtaga sarflangan mablag'alarini daromad solig'i bazasidan chiqarish va boshqalar;

➤ sug'urtalanuvchilarning sug'urta madaniyatini oshirish bo'yichatarg'ibot, tashviqot ishlarini, reklamani amalga oshirish va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.

Sug'urta shartnomalari soni haddan ziyod bo'lganda 1-hisob guruhi bo'yicha sug'urta zahiralarini «yigirma to'rt dan bir» usulida hisoblash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu usul ko'p sonli shartnomalarni ularning amal qilish muddatidan kelib chiqib guruhlash orqali sug'urta zahiralarini hisoblash imkonini beradi. Bu esa, sug'urtalovchi tomonidan sug'urta zahiralarini shakllantirishda va ularning hisobini amalga oshirishda qulayliklar yaratib beradi. Sug'urta zahiralarini shakllantirishning «Yigirma to'rt dan bir» usulini yuqoridagi tartibda qo'llash taklif etiladi.

➤ qayta sug'urtalash munosabatlarning qonunchilik bazasini ta'minlash va qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida, qayta sug'urtalash munosabatlari tartibga soluvchi maxsus qonun yoki me'yoriy hujjatni ishlab chiqish;

➤ qayta sug'urtalovchi tashkilotlarining shakllanish jarayonidaligini hisobga olgan holda, vaqtincha (2 yil), mahalliy sug'urtalovchilar tomonidan risklarni chet el qayta sug'urtalovchilariga uzatishda, avval ularni mahalliy qayta sug'urtalovchilarga taklif etishi shartligi, tartibini amalga kiritish;

➤ qayta sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta zahiralari shakllantirish tartibini ishlab chiqish va ularning to'lov qobiliyati me'yorlarini belgilash.

➤ Qayta sug'urta qilishga iqtisodiy talab mavjud bo'lmagan hollarda, xorijga qayta sug'urta qilishning oldini olish uchun boshqa mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan qayta sug'urtalash kvotasining davlat tomonidan ishlab chiqishi lozim. Qayta sug'urta qilishning bunday huquqiy muvofiqlashtirilishi va bir vaqtning o'zida ichki sug'urta bozorida qayta sug'urta qilishni rag'batlantirishning solikli mexanizmi bilan qo'shimcha tarzda to'ldirilishi va mamlakatimizdan tegishli ravishda xorijga qayta sug'urta qilishga uzatishlar hajmini chegaralash mumkin.

➤ Milliy qayta sug'urtalovchilarni monopol faoliyati cheklash maqsadida ichki qayta sug'urtalashning chegaraviy kvotasini belgilash. Bu ishni amalga oshirish uchun "qayta sug'urta xizmatlari ko'rsatishning yagona talablari va standartlari to'g'risida"gi nizomga o'zgartirish kiritish orqali aniq kvotani belgilash mumkin.

➤ Boshqarish huquqi milliy kompaniyalarda bo'lgan qo'shma qayta sug'urtalovchi aksiyadorlik kompaniyalarini tuzish orqali ham sug'urta mukofotlarini chetga chiqib ketishini oldini olish mumkin.

➤ Qayta sug'urta bozorida yuzaga kelayotgan muammolardan biri bu, sug'urta sohasida qabul qilinayotgan ba'zi qonuniy-me'yoriy hujjatlarni qayta sug'urtalashni hisobga olmagan holda ishlab chiqilganidir. Xususan, "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish" qonuni

bo'yicha shu sug'urta turi bo'yicha aniq stavkalar o'rnatilgan. Amaliyotda esa bu sug'urta turi bo'yichakatta miqdordagi sug'urta summalari vujudga kelgan. Ba'zi shartnomalar bo'yicha, bu sug'urta summalari ichki sug'urta bozorining kapital sig'imidan bir necha barobar katta ham bo'lgan. Shuning uchun bu sug'urta turi bo'yicharisklar qayta sug'urta qilishga uzatilishi kerak bo'ldi. Lekin bunda bu sug'urta turi bo'yichasug'urta stavkalari xorijga qayta sug'urta qilishga uzatish uchun zarur bo'lgan brutto stavkalarga mos kelmasligi aniqlangan. Shuning uchun sug'urta sohasiga tegishli qonuniy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinayotgan paytda qayta sug'urta qilishni ham hisobga olish zarur.

➤ Qayta sug'urtalash sohasida yuzaga kelayotgan muammolardan navbatdagisi qayta sug'urtalovchilar o'z kapitallarini investitsiyalarga yo'naltirishi bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Qayta sug'urtalovchilarni ustav kapitali yuqori bo'lishini hisobga olgan holda, aytish mumkinki, qayta sug'urtalovchilarni keng qamrovli investitsion siyosatini amalga oshirishi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham qo'llab-quvvatlashi mumkin.

➤ Qayta sug'urtalovchining "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"ni(sug'urta) va Buxgalteriya balansini(sug'urta) tuzish uchun zararlilik tebranishi tahlilini va yirik zararlar zahiralari shakllantirishning uslubiyotini takomillashtirish;

➤ Taqdim qilingan borderolar asosida, "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"lar asosida qayta sug'urtachi tuzilgan shartnomalar bo'yichayuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar dinamikasi va moliyaviy holatga ta'sirini nazorat qilish uslubiyotini yaratish;

➤ Obligatori qayta sug'urtalash shartnomalarini amalga oshirish amaliyotida sug'urta mukofotlarini har bir risk bo'yichaemas, balki ma'lum muddat davomida qayta sug'urtaga berilgan risklarning jamiga nisbatan hisoblash tartibi qo'llash amaliyotini tatbiq qilish.

➤ Xulosa qilib aytganda, tezkor axborotlar olish va foyda-zararlar dinamikasini tahlil qilishdan chiqarilgan xulosalar asosida moliyaviy

barqarorlikni ta'minlash va moliyaviy resurslarni to'g'ri joylashtirini prognozlash imkoniyatlari yaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib, O'zbekistonda qayta sug'urtalashning rivojlanayotganligini va uni rivojlantirish hamda takomillashtirish bo'yicha imkoniyatlarning kattaligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu imkoniyatlarda foydalanish va yuqorida keltirilgan yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish, mamlakatimizda sug'urtalash va qayta sug'urtalash munosabatlarini takomillashishini ta'minlashi shubhasizdir. Bu esa o'z navbatida, sug'urta sohasining iqtisodiyotdagi o'rning ortishiga va uning barqaror rivojlanishiga turtki beradi. Bu albatta milliy qayta sug'urta bozori va undagi operatsiyalarni ma'lum darajaga takomillashishiga hamda O'zbekiston sug'urta bozorining xalqaro sug'urta bozorlarida faol integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2008 yil 21 aprel.
3. "Ish beruvchiining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2009 yil 16 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining "Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. 2015 yil 26 may
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Sug'urta faoliyati to'g'risida". 2002 yil 28 may (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-618-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-872-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son Qarori

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 141-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2009 yil 24 iyundagi 177-son qarori.

## **2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari**

13. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.–T.:O‘zbekiston, 2010. – 80 b.

14. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O‘zbekiston, 2009.- 24 b.

15. Karimov I. A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. –T.: “O‘zbekiston”, 2011y.-528 bet.

16. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.//Xalq so‘zi, 2017 yil 18 yanvar.

## **3. Darslik va o‘quv adabiyotlari**

17. Rene Doff “Risk Management for Insurers, Third Edition”, Risk Books, 2015.

18. Jack Kinder Jr. Garry Kinder “Secrets of Successful Insurance Sales”, Napoleon Hill Foundation, UK, 2012.

19. David Bland “Insurance: Principles and Practice”, The Chartered Insurance Institute, UK, 1993.

20. Robert H., II Jerry, Douglas S. Richmond “Understanding Insurance Law”, LexisNexis; 5 edition, UK, 2012.
21. Harriett E. Jones “Principles of Insurance Life, Health, and Annuities”, Loma (Life Office Management Association), USA, 2005.
22. Glenn E. Stevick Jr. “Essentials of Business Insurance”, The American College, USA, 2006.
23. А.Н.Зубец. Маркетинговые исследования страхового рынка. Центр экономики и маркетинга -Москва: 2001. 98 стр.
24. Shennaev X.M. Sug’urta agentlari uchun qo’llanma. T. infoCOM.UZ MChJ.-2010 y.
25. Yo’ldoshev M, Tursunov Y. O’zbekiston Respublikasi sug’urta huquqi. Darslik - Toshkent, “Moliya”.-2012.
26. Shennaev X.M., Kenjaev I.G’. Chet mamlakatlar sug’urtasi, O’quv qo’llanma, - Toshkent “Yangi nashr”,-2012
27. Shennaev X.M. O’zbekiston sug’urta bozori, O’quv qo’llanma, - Toshkent, “Iqtisod-Moliya”,-2013.
28. Shennaev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G’. Sug’urta ishi, O’quv qo’llanma,-Toshkent “Iqtisod-Moliya”,-2014.
29. Shennaev X.M., Xaliqulova G.T., Abduraxmonov I.X. Tashqi iqtisodiy faoliyat sug’urtasi,Darslik,-Toshkent-2014.

#### **4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)**

30. Harshani K., Gayani K.and Dilanthi A. Role of insurance in post disaster recovery planning in business community // Procedia Economics and Finance №18 ( 2014 ) 626 – 634 p. (manba: [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com))
31. Christian P.R.Schmid, Konstantin Beck Re-insurance in the Swiss health insurance market: Fit, power, and balance // Procedia Economics and Finance №20 ( 2015) 112 – 118 p. (manba: [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com))

## **5. Internet saytlari**

32. <http://www.mf.uz> – (O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi)
33. <http://www.raexpert.ru> – (Ekspert RA Reyting agentligi)
34. <http://www.lex.uz>- (Milliy qonunchilik rasmiy sayti)